

BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKİSTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 30-avgust, №35 (3097)

## Mustaqilligimizning



# muborak!



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI


**BIZ**  
HAQIMIZDA

@vatanparvar-bt@umail.uz  
t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi  
facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi  
youtube.com/c/uzarmiya

# BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!



Vatan tushunchasiga ta'riflar bisyor. Yozuvchi asarida, shoir she'rida, san'atkor qo'shig'iда madh etadi. Ularning ijodini bezaydi. Vatanga o'xshatishlar ham ko'p. Eng beba ho va go'zali – onaga qiyoslanishi.

Onamizni qanchalar sevamiz, e'zozlaymiz, qadrlaymiz. Xonodonni onasiz tasavvur eta olmaymiz.

Vatanimiz ham shunga munosib. Har ikkisining mehri ila hayotimiz yorug' va farovon bo'ladi. Vatan – ona yerimiz va kindik qonimiz tomsgan zaminimiz ekani ayni haqiqat. Uyimiz, mahallamiz, tumanimiz, shahrimiz, mamlakatimiz bu Vatandir.

Vatan – ota makon. Uning nomini otamizni ulug'lagandek, "ota makonim", deyilishida ham hikmat mujassam. Otamizga qiyoslanishi oilaning boshi, xavf-xatardan himoyachi va qalqon, yovlardan asraguvchi, g'amxo'r, ta'lif va tarbiya beruvchi hazrati insondir. Keksalarning "Tarbiya bergan otangga rahmat!" degan so'zida ibrat namunasi sifatida ko'p ma'nolar jamlangan. Vatan ham xavf-xatardan bizni tinchlik va omonlikda asraydi. Uyimizda xotirjamlikda tong ottirishimiz, kuniimizda baraka, ishimizda unum bo'lishida buni his etamiz.

## Endi ayting-chi, bunday Vatanni sevmay bo'ladi mi?!

Har bir mahalla-yu ko'cha-ko'yning obod bo'layotganidan ko'zimiz quvnaydi. "Obod qishloq", "Obod mahalla" kabi nomlar ostida ko'plab yo'l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari hamda ijtimoiy soha obyektlarida qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi, xizmat ko'rsatish shoxobchalar tashkil etildi, shuningdek ularda istiqomat qilayotgan aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar qilindi.

Buning yaqqol misolini yurtimiz bo'ylab mahallalarda aholining holdidan xabar olish va ularga bayramona kayfiyat ulashish maqsadida "Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!" shiori ostida tashkil etilayotgan "Ma'naviyat festivali" doirasidagi tadbirdorda qatnashayotgan xalqimizning yuzida aks etganining guvohi bo'ldik. Jumladan, Xorazm viloyatida o'tkazilayotgan tadbirdardan birida 86 yoshni qarshilagan 5 qiz va 5 o'g'ilni dunyoga keltirib, ularning har birining baxtli va saodatli bo'lishini ko'rishga tuyassar bo'lgan Shirmonoy buvi xursandchiligi ichiga sig'may, davrani to'ldirib o'ynaganiga havasimiz keldi. Ularning baxtiyorligi sirini bilish maqsadida suhabtaga tortidik. Buvi: "Men judayam baxtilman. Mening baxtim yurtim tinchligida, farzandlarim yonimda ekanida, azizlarim."

Bu boshimiz ne-ne qiyinchiliklarni ko'rmadi. Ehhe... Hammasinga tilimizda shukrimiz, qalbimizda sabrimiz, tinimsiz mehnatalimiz tufayli erishdik. Yo'qchilikni ko'rdik. Bugun esa uyimda, ro'zg'orimda hamma narsa yetarli. Harakat qilgan inson yaxshi yashaydi. Men bolalarimga mehnat bilan farovon

yashash mumkinligini o'rgatdim. O'qiyman desangiz, bepul ta'lif, hunar o'rganishga sharoitlar qilingan. Birgina talab, inson o'zi izlanishi va harakat qilishi kerak. Umrin mehnatda o'tgani uchun men sog'lom yuribman.

Bozorlarimizdagi noz-u ne'matlarning ko'pligidan hayratimiz oshadi. Dasturxonimiz bu ne'matlarga to'lib-toshgan. Bu ham odamlarning mehnati. Faqat ularni isrof qilmasligimiz kerak. Hamma yutuqqa faqat va faqat mehnatimiz bilan erishamiz. Nabiralarimizga ham buni ko'p tushuntiryapman.

Bizga yo'lboshchi bo'layotgan davlatimiz rahbari omon bo'lsin, uzoq umr ko'rsin..." deya duolar qildi. Chin ma'noda Shirmonoy buvi tadbirda ishtirok etayotgan barcha katta-yu kichik qo'ni-qo'shnilariga Vatanga bo'lgan sevgi-sadoqati uning shukrida ekanini va farzandlariga yaxshi tarbiya berishi zarurligini his ettidir.

**Shu asnoda XV asr jahon ma'naviyatining buyuk siyosi Alisher Navoiyning "Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'am" kabi hikmatli so'zlarini eslash lozim.** Azaldan inson dunyoga kelibdiki yaqinlari, qo'ni-qo'shnilar, yor-u birodarlar dard-u tashvishlari bilan yashagan. Kulsa kulg'an. Yig'lasa yig'lagan. Bu o'ziga xos insoniylik namunasi. Navoiy ham shunga ishora qilgan edi. Yoki ma'rifatparvar jadidimiz Abdurauf Fitrat "Vatan bizning valine'matimiz va murabbiyimiz va unga xizmat qilish burchimizdir", degan so'zlarida ona Vatanga bo'lgan izhorini bayon etadi.

Ha, bu yurt uchun jonini fido qilgan qanchadan qancha buyuk ajdodlarimiz ilm-u zakovati bilan dunyo ilmiga hissa qo'shganini yaxshi bilamiz. Ularning ilmlari bugungi kunda ko'p bora tilga olinmoqda. Masalan, tibbiyotni rivojlantirishda Ibn Sino, falakiyotni yuksaltirishda Mirzo Ulug'bek, matematik hisob-kitoblarni yaxshilashda Al-Xorazmiy kabilarning yozgan ilmlari dunyo ilmi beshigini tebratmoqda.

Shirmonoy buvidek onalarimizning "**Istiqloling porloq bo'lib, xalqimga xizmat qilgin, jajjiginam, alla**", deb aytg'an allasida ham bolasining kelajagi va Vatanini sevish hamda xalqiga sadoqati shakllantiriladi. Har bir ota-onanining orzu-umidlari farzandi bilan go'zal bo'ladi. Bilimli, aqli, dono, kasb-

hunarli, tarbiyali farzandlari ko'p bo'lgan yurtning kelajagi porloqdir.

Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari ahil-inqlikda birlashib, bir Vatan bo'lib istiqomat qilib kelmoqda. Bir tan-u bir jon bo'lib yashash bizga otabobolarimizdan meros bo'lgan. To'y-u tantana, bayramlarning ham birga o'tkazilishi va qo'ni-qo'shnichilik, quda-andachilik munosabatlarining mustahkam ekan, jipslikda yashayotgani hech kimga sir emas. Shuning uchun ham bugungi kunda bir-biriga yanada yaqinlashtirish maqsadida "**Birlashsak – Vatanmiz**" deyilmoqda. Bundan bir necha asrlar avval aql-u tafakkuri bilan salkam dunyoni zabt etgan bobomiz Amir Temurning "Birlashgan o'zar" so'zlarida ushbu shior mujassamligini ko'rishimiz mumkin. Bir-birimzga bo'lgan hurmatimiz cheksizligi bobomizdan merosdir.

**Eng avvalo, inson qadr-qimmatini yuksaltirish maqsadlarimizga aylangan. Inson omili va uning xohish-istiklari yuqori o'ringa qo'yilgan yurtda yashaymiz.** Buning yaqqol misolini har bir o'g'il-qizimizga alohida e'tibor berilayotganida ko'rishimiz mumkin. Davlat rahbarining topshiriqlarining eng katta qismi ham yoshlar kelajagiga qaratilgan. Masalan, yaqinda Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'lib o'tgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi ma'ruzasida ham xalqn'i boy qilish va davlatni rivojlantirishga qaratilgan ishlarning hammasi minglab odamlar ishl, daromadli bo'lishi, oila qurishi, uy-joyli bo'lishi, bolalarini tarbiyalashi, o'qitish imkoniga ega bo'lishi maqsad qilingan. Buning isbotini joriy yilning o'zida tadbirkorlarning tovar aylanmasi o'tgan yilga nisbatan 25 foizga ko'payib, 986 trillion so'mga yetgani, yillik aylanmasi 10 milliard so'mdan 100 milliard so'mgacha bo'lgan o'rta korxonalar 2 karra ko'paygani, aylanmasi 100 milliard so'mdan ortiq yirik korxonalar esa 2 200 tadan oshgani hayratimizni oshirdi. Bu degani – o'tgan yilga nisbatan 2 barobar ko'p degani. Yil yakuniga qadar 3 barobarga yetishi ham ehtimoldan xoli emas.

Xalqn'i rozi qilish va baxtli ko'rish uchun qilinayotgan bu kabi ishlarni odamlar yaxshi bilishi kerak. Ulg'aytirayotgan o'g'il-qizlarining

ichidagi kasb-hunarga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun ham tushuntirishi lozim. Ishi, daromadi bor odam esa hech qachon yomon yo'lda kirmasligini, buzg'unchi ishlarga qo'l urmasligini ta'kidlab turishi zarur. Farzandlarning kelajagi, oilaning, jamiyat va davlatning kelajagidir. Buni yaxshi anglagan xalqdan yomonlik chiqmaydi. Farzandini sevgan inson yomonlik qilmaydi va o'z Vatanining taqdiringa befarc bo'lmaydi. Unday inson esa Vatanini jonidan ortiq sevadi va sadoqati mustahkam bo'ladi.

Sevimi shoirimiz Abdulla Oripovning "**Men nechun sevaman, O'zbekistonni**", deya yozganida ham hikmat bor. Shu yurda tug'ildik. Demak, uning uchun jonimiz fido bo'lmog'i lozim. Biz Vatanimizni qanchalik asrasak, sevsak, e'zozlasak, kelgusi avlodlarimiz ham shunday qiladi. Qayerga borib yashamaylik, kindik qonimiz to'kilgan ona zaminning qadri yuksakligicha qolaveradi. Vatanni sevmoqlig iymonimizdan ekan ham hadislarimizda kelgan. Iymonsizda yurtini sevish mas'uliyati bo'lmaydi. Istagan buzg'unchiga Vatanini tortiq qiladi. Bu kabi iymonsizlardan yurtimizni asraylik.

**Vatanni sevish shukrimizda, sabrimizda, ezgu amallarimizda namoyon bo'ladi. Bajarayotgan kundalik ishlarni, farzandimizga berayotgan ta'limtarbiyamiz ish faoliyatimizdag'i sa'y-harakatlarimiz natijasida aks etadi.** Vatanni sevgan insonning hayoti farovon va turmushi go'zal, xonadoniga qut-baraka yog'ilib turadi. Uning oldidagi mas'uliyati toki umri tugaguncha qalqondek mustahkamligini saqlaydi. Yaqin atrofidagi yolg'iz keksalar va muhitojlar holidan xabar olib, yordam beruvchi qo'llarini uzatadi. Ta'lim olaman deb moddiyati yetishmayotgan o'g'il-qizlarga ko'maklashadi.

Shunday ekan, **maqsadlarimiz ezgulik va yaxshilik qilish bo'lsin.** Vatanni sevish qalbimiz va amallarimizda aks etsin. Yurtimiz tinchligi hamda mustaqilligi abadiy davom etib, yanada gullab-yashnasin!

**Munira KAXAROVA**  
O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi, siyosiy fanlar doktori



Saylov huquqi sohasiga taalluqli prinsiplar va andazalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining bir qancha xalqaro universal hujjatlarida, xususan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining (1948-yil) 21-moddasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning (1966-yil) 25-moddasida, Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risida xalqaro konvensiyaning 5-moddasida, Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risida BMT deklaratsiyasining (1963-yil) 6-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

# Saylov tushunchasi mazmun-mohiyati va huquqiy asoslari

(2-maqola)

Shuningdek, mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham o'zlarining Inson huquqlari va asosiy erkinliklарини himoyalash to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (1950-yil), Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasi (1969-yil), Inson va xalqlar huquqlarining Afrika xartiyasi (1986-yil) kabi xalqaro huquqiy hujjatlari timsolda xalqaro saylov andazalariga jiddiy ahamiyat qaratadi. Xususan, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (YXHT) demokratik saylovlar sohasidagi asosiy andazalarini Insoniylik mezonlari bo'yicha Kopengagen hujjatida (1990) o'z aksini topgan.

**Siyosiy-huquqiy jarayonlarni maqsadli, tizimli va samarali amalga oshirish usullarini topish va yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekistonda saylov tizimiga oid huquqiy asoslar muntazam ravishda takomillashtirilib borilmoqda.** Masalan, mustaqillik davrida xalqaro huquq andazalarini va talablar, ilg'or xorijiy tajriba va milliy-tarixiy an'analar hamda konstitutsiyaviy prinsiplar asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovni to'g'risida"gi (1991-yil 18-novabr).

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi (2003-yil 29-avgust yangi tahriri), "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi (1994-yil 5-may), "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (1994-yil 5-may), "O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi (1998-yil 30-aprel) qonunlar fikrimizning yaqqol dalilidir. Shuningdek, 2019-yil 26-iyundan kuchga kirgan "O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi" mamlakatimizning saylovga oid barcha huquqiy-me'yoriy hujjatlarini birlashtirib, yagona manbara aylandi. Saylov kodeksi 103 ta moddadan iborat.

**Sanab o'tilgan ushbu qonunlar o'tkazilgan saylovlardaga to'plangan tajribalar, ko'ppartiyaviylikning rivojlanishi hamda jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksalib borishi natijasida tobora takomillashtib bordi.** Eng asosiyi, qabul qilingan mazkur qonunlar davlat hokimiyatini demokratik saylovlar orqali shakllantirish bo'yicha umume'tirof etilgan xalqaro prinsiplar va huquqiy normalarga to'liq mos keladi va eng muhimmi, ularda barcha turdag'i saylovlarni adolatli va erkin,

umumiyl, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazish prinsiplarini to'liq ta'minlashga qaratilgan yetarlicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlar aks etgan.

Ko'rinish turibdi, davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirish tartibi, mohiyatan siyosiy-huquqiy mexanizm shaklida namoyon bo'lib, bu mexanizm bir vaqtning o'zida saylov huquqi va saylov jarayonini ifodalaydi. Bunda saylov huquqi saylanadigan vakillarning davlat hokimiyati vakolatlariga ega bo'lishiga oid bo'lib, jamiyat va davlat faoliyatining muayyan qirralarida ko'rinsa, saylov jarayoni subyektiv siyosiy huquqlarini amalga oshirishning o'ziga xos shakli sifatida saylovchilarining vakillik hokimiyatining amalga oshirilishida umumiyl ishtiokining texnologiyasini aks ettiradi. **Demak, saylov huquqi va saylov tizimi davlat va jamiyat hayotiga oid siyosiy jarayonlar bilan yaqindan bog'liq.**

Saylovlar fuqarolarni davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga faol jalb qilishning eng muhim shakllaridan biridir. O'zbekistonda saylov tizimi va saylov huquqi chinakam demokratik prinsiplarga asoslangan bo'lib, prinsiplarga O'zbekiston fuqarolaring davlat suverenitetini to'liq amalga oshirishni ta'minlaydi. Davlatda vakillik organlarini shakllantirish yuzasidan mavjud bo'lgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovni tashkil qilish va deputatning saylovchilar bilan o'zaro munosabatlarini belgilaydigan tartibi saylov tizimi deyiladi. **Saylov tizimi tushunchasi** davlatning demokratik yoki demokratik emasligini ko'rsatuvchi asosiy omildir.

"Saylov jarayoni" tushunchasi "saylov kampaniyasi" tushunchasini ham o'z ichiga olib, uning mazmuni bilan cheklanmasdan, balki u yana bir qancha bosqichlar, harakatlar va rasman vaqt doirasini bilan chegaralangan taomillarni ham qamrab oladi. **Demokratik saylov jarayoni mamlakatda o'rnatilgan siyosiy jarayon va rejimning bir qismi bo'lib, u fuqarolarning saylov huquqlarining amalga oshirilishining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy infratuzilmasini tashkil etuvchi demokratik institutlar rivojlanishining umumiyl shartlari bilan bevosita bog'liq.** Bundan tashqari, saylov kampaniyasini boshlashdan oldin bir qancha muhim harakatlar va tartib-taomillarni amalga oshirish talab etiladi. Ularga ko'ra, saylov jarayoni nafaqat ovoz berishni tashkil qilishning yuridik texnikasi bo'lmay, balki u hokimiyatning siyosiy barqarorligi va uzluksizligini, xalqchilligi va qonuniyligini ta'minlovchi huquqiy institut sifatida ham namoyon bo'ladi.

Saylovlar davlat hokimiyati organlarining butun tuzilmasiga oliy boshlang'ich legitimlikni beradi. **O'zbekistonda bevosita saylovlar yo'li bilan Oliy Majlisning quyi palatasasi – Qonunchilik palatasasi va davlat boshlig'i – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari saylab qo'yiladi.** Shu taripa saylanadigan davlat hokimiyati vakillik organlari vakolatiga davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim masalalarini hal etish kiritilgan. Bu barcha darajadagi saylovlarining o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

**Saylovlar** referendum kabi xalq irodasining to'g'ridan to'g'ri namoyon etilishining qonunlashtirilgan shaklidir. Saylovlar orqali fuqarolar davlat hokimiyati organlarining shakllanishida ishtirot etadi va bu bilan davlat boshqaruvidagi o'zining konstitutsiyaviy huquqini amalga oshiradi.

**Fuqarolik jamiyat bilan saylovlar** aloqadorligi asosan shu bilan belgilanadiki, fuqarolik jamiyat, fuqarolarning fikrlari va manfaatlarining xilma-xilligiga asoslangan holda tashkil etiladi. Davlat organlari fuqarolarning ishtiroti bilan adolatlari saylovlar asosida tashkil etilmaydigan bo'lsa, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda qonunga itoat etishini ta'minlashga, keskin ijtimoiy qarama-qarshiliklarni hal etishga imkon bo'lmaydi. Bu yerda demokratik saylovlar hokimiyat masalasining kuch bilan hal etilishini tamoman inkor etadi. Ana shu bois demokratik saylovlar fuqarolik jamiyatining eng muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

O'z navbatida, **saylovlar bevosita jamiyatning siyosiy tizimini aks ettiradi** va o'z tomonidan unga ta'sir ko'rsatadi. Ularning tashkil etilishi va ovoz berishning yakunlarini aniqlash tartibiga tegishli barcha jarayonlar siyosiy partiyalar bilan yaqindan bog'liqdir. Saylovlar fuqarolarga hokimiyat uchun kurashayotgan siyosiy partiyalar dasturlarining haqiqiy mazmun-mohiyatini anglashga imkoniyat beradi. Faqatgina saylovlar orqali xalqning irodasi aniqlanadi, uning asosida esa demokratik hokimiyat yaratiladi.

Demokratik davlatda siyosiy madaniyat va fuqarolarning tashabbuskorligi yuqori darajada rivojlangan paytlarda ham saylovlardan to'la yakdillik bo'lmasligi tabiiy hol hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, saylovlardagi kurash orqali oxir-oqibatda jamiyat hayotida barqarorlikka va rivojlanishga erishiladi.

**Xulosa qilib aytganda, saylovlar nomzodlarning kurashi va musobaqasi bo'lgani uchun ularda turli xil siyosiy o'yinlar va qiziqish elementlari mavjuddir.** Bunday holatning yuzaga kelish boisi shundaki, saylovlarda qatnashayotgan fuqarolarning siyosiy partiyalar tomonidan taklif etilayotgan dasturlarga nisbatan nafaqat o'zlarining manfaatlarini aniqlash vaziyatiga duchor bo'ladi, balki aniq nomzodlarga nisbatan o'zining xayriyohligini yoki xush ko'rmasligini ham namoyon qilishiga sharoit yaratiladi.

Jahon tajribasida fuqarolarning saylov huquqlarining to'g'ridan to'g'ri yoki bilsosita cheklashga hamda saylovchilarining o'z xohish-irodasini bildirishini nazorat qilishga yo'l qo'yilmasligi, saylovchilarga o'z ijtimoiy faolligini mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqi, shaxsning saylov huquqlari sud yo'li bilan himoya etilishi, saylov komissiyalarining, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonunyi xattiharakatlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyati kafolatlanadi.

**Mayor Abduqodir OTABOYEV, Qurolli Kuchlar akademiyasi katta o'qituvchisi, s.f.f.d. (PhD), dotsent**



# KURSANTLAR

Bu parashyutdan necha marta foydalanish mumkin? Uning yaroqlilik muddati qancha?

Kalashnikov qo'l pulemyotining talafot yetkazish masofasi necha metrni tashkil etadi?

– Siz fuqarolik hayotingizda bu texnikani tank deb o'ylagansiz. Shundaymi?

– Xuddi shunday!

– Afsuski, adashgansizlar. Bu jangovar texnikaning nomi BTR-82 bo'ladi. Mana endi, o'qish davomida bu texnikalar bilan yaqin do'st tutinasiz.

Qurolli Kuchlar akademiyasi o'quv jarayonini tashkil etish bazasida Qurolli Kuchlar akademiyasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasining birinchi bosqichiga qabul qilingan yosh kursantlar uchun jangovar qurol va texnikalar ko'rgazmasi tashkil etildi.

Ma'lumki, davlat imtihoni va saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tib, kursantlikka tavsiya etilgan, egniga harbiy libos kiygan o'g'lonlar uchun xizmatga moslashuv davri biroz mushkul o'tishi mumkin. Biroq aynan mana shu bosqich yigitlarning haqiqiy harbiy xizmatga bo'lgan chidamliligini, bardoshini, sabr-matonati va mahoratini sayqallaydi. Bu kabi ko'rgazmalar esa kursantlarda haqiqiy jangovar qurol bilan qanday muomalada bo'lish kerakligining dastlabki

tushunchalarini butun umrlik qilib xotirasiga muhrlaydi.

Ko'rgazmada Mudofaa, DXX Chegara qo'shinlari, Ichki ishlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo'linmalarining mutaxassislari o'z xizmat faoliyatida foydalananayotgan jangovar texnikalar, qurol-yarog'lar, xizmat otlari va itlari bilan ishtirok etdi. Guruhlarga bo'lingan holda amaliy ko'rgazmada ishtirok etayotgan kursantlar esa o'quv nuqta rahbarlari bilan bevosita jonli muloqotga kirishdi.

– Farg'ona "Temurbeklar muktabi"da tahsil olishim harbiylikka bo'lgan qiziqishimni o'n chandon oshirdi va bugun kursantlar safidaman, – deydi Qurolli Kuchlar akademiyasining 1-bosqich kursanti Abdulaziz Shavkatov. – Maqsadim – akademiyada a'lo baholarga o'qib, harbiylik sir-sinoatini puxta o'rghanish va kelajakda yetuk ofitser



## AMALIY KO'RGAZMADA



kadr bo'lib, xalqimizga xizmat qilish. Menga katta ishonch bildirgan ota-onam, do'stlarim va butun mahallamiz ahllining yuzini yorug' qilishga, ona Vatanimga sodiq bo'lishga bor kuch-g'ayratimni safarbar etaman.

Darhaqiqat, yurt o'g'lonlarining o'z mahorati ustida tinimsiz ishlashi, Vatanga tirkak, elga suyanch bo'lishi uchun bugun milliy armiyamizda barcha sharoitlar muhayyo etilgan.

Buning uchun esa kishidan faqat va faqat mehnat talab etiladi.

Bir so'z bilan aytganda, kursantlikka tavsiya etilgan o'g'lonlarning poligondagi hayoti foydali va samarali kechmoqda. Oldinda hali ularni eng muhim va hayajonli voqeа – Vatanga qasamyod tadbirni kutib turibdi.

**Katta leytenant  
Islomjon QO'CHQOROV,  
"Vatanparvar"**



Taraqqiyot



## TAKOMILLASHAYOTGAN HARBIY SANOAT

Texnika va texnologiyalar taraqqiyoti bo'yicha insoniyat yangi bir bosqichga ko'tarilayotganini ko'pchilik e'tirof etmoqda. Ayniqsa, hayotimizga sun'iy intellektning kirib kelishi ko'pchilikni bir oz shoshib qo'ygani rost. Ana shunday shiddatli zamonda bizning mutaxassislar ham zamon bilan baqamti ketish harakatida. Markaziy harbiy okrug hududidagi harbiy qismlardan birida foydalanishga topshirilgan Zirhli texnikalarni ta'mirlash majmuasi ham fikrimizning dalili bo'ldi.

Foto: Bahrom ABDURAHIMOV



Harbiy qismlarda uzoq yillar mobaynida saqlanib kelayotgan texnik nosoz bo'lgan zirhli texnikalarni qayta tiklash, ta'mirlash va texnik xizmat ishlarni olib borishga mo'ljallangan majmuuning tantanali ochilish marosimida mudofaa vaziri general-leytenant Bahodir Qurbanov ishtirok etdi.

Qurolli Kuchlar faxriylari, harbiy qism shaxsiy tarkibi va keng jamoatchilik vakillari olqishlari bilan bir guruh harbiy xizmatchilar va yangi obyektlar qurilishida bosh-qosh bo'lgan mutasaddilarga esdalik sovg'alar topshirildi.

Ramziy lenta kesilgandan so'ng majmuua bilan yaqindan tanishgan mehmonlar texnik nosoz bo'lgan zirhli tank



texnikalari hamda texnik nosoz buyumlarni demontaj qilish ishlari, elektr jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish, payvandlash, po'latlarga ishlov berish va boshqa mexanik ishlar, bo'yoqlash kabi jarayonlar haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'ldi. Ta'kidlash kerakki, majmuada texnikalar uchun zarur bo'lgan ehtiyyot qismlar

yasashdan tortib bo'yoqlash ishlarigacha bo'lgan amaliyotlar bajariladi. Ta'mirlash jarayonlari zamonaviy dastgoh va uskunalarda olib boriladi. Majmua mutaxassislari amaliy mashg'ulotlarda ko'chma holatda ham ishlashi mumkin.

Yangi majmuuga zamonaviy harbiy texnikalar ("KamAZ", avtobus, tirkamali "KamAZ") taqdim etilgani, ko'pchilik uchun yana bir quvonchli xabar bo'ldi. Zero ushbu qulaylik ish sur'atini yanada jadallashtirishga hissa qo'shishi bilan ahamiyatli.

A. O'KTAMQULOV

# HARBIY QISM ZAMONAVIY QIYOFADA

Vatanimiz mustaqilligining 33 yillik bayrami arafasida Quva tumanida joylashgan harbiy qism kapital ta'mirdan chiqarildi. Shu munosabat bilan harbiy qismdagi bino-inshootlarni foydalanishga topshirishga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.



Unda viloyat hokimi, hududiy harbiy-ma'muriy sektor rahbari Xayrullo Bozorov, Sharqi harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-major Oybek Saidov, harbiy xizmatchilar va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Mamlakatimizda harbiy xizmatchilar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida harbiy qismlarning o'quv-moddiy bazasi, harbiy shaharcha va poligonlarning

infratuzilmasi tubdan yangilanmoqda. Jumladan, mazkur harbiy qism infratuzilmasi zamon talablariga mos ravishda kapital qurildi va ta'mirlandi, mavjud o'quv-moddiy bazasi yangilandi hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlandi. Harbiy qismda tegishli loyiha asosida o'quv binosi, shtab va yotoqxona bilan birga oshxona, sport majmuasi, ochiq o'yingohda

kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirildi, hudud obodonlashtirildi. Harbiylar uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Shuningdek, Sharqi harbiy okrug Namangan garnizonidagi harbiy qismda yangi o'quv binosi foydalanishga topshirildi. Tadborda Oliy Majlis Senati a'zolari, viloyat sektor rahbarlari hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashdi. Ramziy lenta qirqilgach,

yig'ilganlar yangi majmuada harbiy xizmatchilar va askarlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Yangidan qad rostlagan o'quv binosida yurt posbonlari bilan jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik bo'yicha nazariy mashg'ulotlar o'tkazish, ruhiy zo'riqishlarni yechish xonalarini, kompyuter sinflari, kutubxonasi o'rinni oлган.

## ISTIQLOL INSHOOTLARI

Farg'ona shahridagi "Yangi O'zbekiston" massivida bunyod etilgan 7 qavatlari uylardagi yangi xonadonlar kalitlari mudofaa tizimi harbiy xizmatchilariga topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Unda Qurolli Kuchlar faxriylari, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari qatnashdi.



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mazmunini "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oya tashkil etadi. Bu boradagi amalii ishlari Qurolli Kuchlar tizimida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Vatanimiz mustaqilligining 33 yilligi arafasida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida uzoq yillardan beri namunalii xizmat qilayotgan harbiylarga yangi xonadonlar kalitlari topshirilishi bayramga o'ziga xos tuhfadir.

Ushbu fikrlarni so'zga chiqqanlar alohida e'tirof etib, o'ziga xos dizayn va barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy uylarda Vatan himoyachilari oilalari bilan tinch-totuv yashab, ertamiz egalarini ulg'aytirishlariga tilak bildirdi.

Shu kuni Sharqi harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-major Oybek Saidov, viloyat hokimi, hududiy harbiy-ma'muriy sektor rahbari Xayrullo Bozorov 100 nafar harbiy xizmatchiga yangi xonadon kalitlarini tantanali ravishda topshirdi.

Chegara qo'shinlarida



**BAYRAM SHUKUH**

Mustaqilligimizning 33 yilligi shodiyonalari respublikamiz bo'ylab Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qism va bo'linmalarda keng qamrovda nishonlanmoqda.

Qoraqlapog'iston Respublikasi Amudaryo tumanida o'z jangovar xizmat vazifalarini bajarayotgan sarhadlarimiz posbonlari va ularning oila a'zolari ham bu yilgi bayramni yangi harbiy shaharchada o'zgacha quvonch va hayajonli lahzalarga boy tarzda kutib olmoqda.

Ularga munosib tuhfa sifatida foydalanishga topshirilgan yangi binolarning ochilish marosimida Chegara qo'shinlari mas'ullari, davlat va jamoat tashkilotlari hamda mahalliy aholi vakillari ishtirok etdi. Tadbir davomida bugun milliy armiyamiz qudratini



yanada yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar e'tirof etilib, yurtimiz tinchligi, sarhadlarimiz daxlsizligi bevosita harbiylarning ijtimoiy himoyasi bilan uzviy bog'liq ekanini inobatga olgan holda, ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlash va munosib xizmat hamda turmush sharoitlarini yaratish masalasi sohadagi yangilanishlarning bosh omili sifatida namoyon bo'layotgani aytib o'tildi.

Foydalanishga topshirilgan Chegarani qo'riqlash vzvodi ma'muriy binosida ham harbiy xizmatchilar uchun zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlangan xizmat xonalari, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk sarkardalarning hayoti hamda harbiy mahoratidan hikoya qiluvchi

xonalar, jismonan chiniqishlari uchun sport zali, kutubxona va tibbiyot punktining mavjudligi yuqorida fikrlarning amaldagi ifodasi ekani ta'kidlandi.

Samimiy tilaklar-u qutlovlari bildirilganidan so'ng shaharcha hududida elparvar o'g'lonlar va ularning oila a'zolari uchun barpo etilgan yangi, zamonaviy xizmat xonadonlarining kalitlari o'z sohiblariga topshirildi.

- Bugun biz uchun qo'shaloq bayram. Istiqlolimizning 33 yillik shodiyonasi arafasida oilamiz bilan birga yangi xizmat xonadonining kalitini tantanali tarzda qabul qilib oldik. E'tirof etish joizki, so'nggi yillarda Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo'mondoni boshchiligidagi olib borilayotgan samarali islohotlar natijasida eng chekka, olis hududlarda joylashgan harbiy qism va bo'linmalarimizning ham infratuzilmasi, moddiy-texnik ta'minoti takomillashib bormoqda. Bu esa albatta, bizga o'zgacha kayfiyat, ko'tarinki ruh va kuch-quvvat bag'ishlaydi. Fursatdan foydalanim, safdoshlarim va oilam nomidan Yurtboshimizga chuqr minnatdorlik bildiramiz, - deydi I darajali serjant Elbek Tursunov.

Darhaqiqat, inson qadri ulug'lanayotgan, har bir fuqaroning o'z hayotidan mamnun bo'lib, baxtli hayot kechirishi uchun barcha qulayliklar yaratilayotgan jonajon yurtimizda sarhadlarimiz himoyachilari bunday yuksak e'tibordan ruhlanib, yangi-yangi zafarlar sari olg'a qadam tashlashi shubhasiz.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari



Xalqimiz boy tarix, yuksak madaniyat, buyuk ma'naviyatga ega. Zero ma'naviy jasorat tuyg'usi eng qaltis va tahlikali davrlarda ham millatimizga umid va ishonch bergen, yovlarga qarshi kurashga undagan. Qalbida jasorat hissi nihoyatda kuchli bo'lган buyuk sarkarda va mutafakkir bobolarimiz har qanday murakkab vaziyatda adolat va haqiqat yo'lidan qaytmagan.

Yurtimizdagi mahallalarning 1-sektorida istiqomat qilayotgan yoshlarning Mudofaa vazirligi tomonidan otaliqqa olinishi ertamiz egalarining buyuk tariximiz, milliy an'ana va qadriyatlarimizni chucher o'rghanishida, ajdodlarimizdek fidoyi, mard, jasur, mahoratlari va cheksiz bilim sohibi bo'lishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Joriy yilning boshidan buyon mahalla faollari hamda faxriylari bilan hamkorlikda 100 mingdan ortiq mana shunday harbiy-vatanparvarlik, sport va targ'ibot-tashviqot tadbiri o'tkazilib, unda 1 millionga yaqin yosh qamrab olindi.

Mahalla yoshlari o'rtasida uch bosqichda o'tkazilgan harbiy-vatanparvarlik majmuaviy musobaqasidan ana shunday ezgu amallar maqsad qilingan. Musobaqaning mahalliy bosqichida 28 017 nafar yosh qamrab olingen bo'lsa, hududiy bosqichida 2 288 nafar o'g'il-qiz o'z omadini sinovdan o'tkazdi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida bo'lib o'tgan respublika bosqichi yurtimizning turli go'shalaridan kelgan 154 nafar yoshni birlashtirdi. Do'stona muhit hukm surgan ushbu majmuaviy musobaqa ishtirokchilarni hamjihatlikka, birlashishga va jamoa bo'lib bellashishga chorladi.

- Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan Mudofaa vazirligi tomonidan otaliqqa olingan yoshlari o'rtasida Mudofaa vazirligi kubogi uchun harbiy-vatanparvarlik majmuaviy musobaqalari O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Yoshlar ittifoqi markaziy kengashi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi bilan hamkorlikda tashkil etildi, - deydi polkovnik Temur Narzullayev. - Inson hayotidagi har qanday yutuq, muvaffaqiyat, ayniqsa barcha musobaqalardagi g'alaba o'z-o'zidan bo'lmaydi. Kimki oldiga yuksak maqsad qo'yib, unga erishish yo'lida bor bilim va kuchini safarbar

# G'alaba



etsa, albatta yuqori natijaga erishadi. Bo'lib o'tgan musobaqada hamjihatlikda harakat qilgan eng munosib jamoa g'olib bo'lishi uchun hakamlar hay'ati a'zolarini xolis mutaxassislardan saralab oldik. Hakamlar tomonidan qo'yilgan baholarga ishtirokchilardan hech qanday e'tirozlar bo'lmadи. Ushbu musobaqa qiziqarli va murosasiz kurashlarga boy tarzda o'tdi. Ishtirokchilarning har biri mardlik va epchilik, qat'iyat va g'alabaga intiluvchanlik, ishonch hamda mas'uliyatni namoyon etdi. Bugun ushbu safda turgan musobaqa ishtirokchilari kelgusida milliy armiyamiz saflarida munosib o'rin egallashiga ishonaman.

Yakuniy bosqichda 14 jamoa "Mardlar safidaman!" harbiy-vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlar tanlovi, "Harbiylashtirilgan estafeta", "Arqon tortish" va "Zakovat" intellektual o'yinlari bo'yicha g'oliblik uchun shiddatli bahslarda bellashdi.





# shohsupasi sari



Turli shartlarda ishtirokchilarning har jihatdan ilgʼor boʼlish, ustunlik qilishga intilishi musobaqaga yanada qizgʼinlik bagʼishladi. Xususan, “Harbiylashtirilgan estafeta”da andijonlik yigit-qizlar eng yuqori natijani qayd etgan boʼlsa, “Arqon tortish”da Qashqadaryo yoshlari barcha raqiblaridan ustun keldi. “Zakovat” intellektual oʼyinida esa Sirdaryo va Qoraqalpogʼiston yoshlari bilimdonlik qildi. “Mardlar safidaman!” shiori ostidagi harbiy-vatanparvarlik qoʼshiqlar tanlovida Nozima Narzullayeva (Sirdaryo viloyati) 3-oʼrin, Nurmuhammad Muhiddinov (Qashqadaryo viloyati) 2-oʼrin, Shohsanam Seitova esa (Qoraqalpogʼiston Respublikasi) 1-oʼringa sazovor boʼldi.

Umumjamoa hisobida faxrlı 1-oʼrinni Qoraqalpogʼiston Respublikasi,


2-oʼrinni Navoiy viloyati, 3-oʼrinni esa Sirdaryo viloyati yoshlari qoʼlga kiritdi.

Musobaqaning tantanali yopilish marosimida mudofaa vazirining oʼrinosi general-major Hamdam Qarshiyev, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, faxriylar yoshlarga oid davlat siyosati mamlakatimizni rivojlantirishning eng ustuvor yoʼnalishlaridan biri ekanini taʼkidlab, ushbu harbiy-vatanparvarlik majmuaviy musobaqasi orqali yigit-qizlarning kelgusida bilim va kuchgʼayratini yurtimiz ravnaqi hamda yuksak maqsadlar yoʼlida safarbar etishiga urgʼu berdi.

Gʼoliblikni qoʼlga kiritgan jamoa aʼzolariga Mudofaa vazirligi kubogi, diplom va medallar, qimmatbaho sovgʼalar hamda hamkor tashkilotlarning esdalik sovgʼalari topshirildi.

**Sherzod SHARIPOV,  
“Vatanparvar”**

Atoqli taraqqiyat "xodimi millat" Saidnosir Mirjalilov 1884-yili Turkiston shahrida tavallud topgan. Avval eski məktəbdə so'ng rus-tuzem məktəbida o'qidi, madrasa ta'limini oldi. Yoshligidan o'ta ziyrak, tadbirkor va mehnatkash bo'lgan Saidnosir tujjorlik faoliyatini kichik bir gazlama do'konini ochishdan boshlagan edi. Savdo ishlari bilan bir paytda jadid taraqqiyatparvarlari g'oyalari bilan tanishadi va Turkiston shahridagi ilk jadid məktəbinin təşkil etdi. 1914-yili 25 desyatina yeri, 40-50 ming puli bilan xususiy paxta tozalash zavodini quradi. 1914-17-yillar davomida u Turkiston shahrining taniqli savdogari va boyalaridan biri sifatida shuhurat qozongan. Hatto 1914-yili Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan müslim vəkillər səyəzdə ishtirok etgan.



S. Mirjalilov 1917-yili Turkiston shahar dumasiga saylanadi va siyosiy faoliyatga kirishadi. Fevral inqilobidan so'ng Toshkentda təşkil etilgan "Sho'royi Islomiya" təşkilotining faol a'zolaridan biriga aylandi. Turkistondagi milliy ozodlik harakatining taniqli namoyandalaridan biri Saidnosir Mirjalilov Turkiston mustaqillikka erishishi orzuda 200 000 rubldan ortiq bor sarmoyasini Turkiston muxtoriyati hukumati uchun hadya qiladi. O'zi uchun qanchalik xavfli bo'lishini anglagani holda Turkiston muxtoriyatiga kirib, muvaqqat millat majlisini moliya komissiyasining raisi, hukumat g'aznachisi lavozimida ish olib bordi.

"Andijon moliya komissiyasining saylanganiga 10 kun chamasi bo'lди. Marhamat qilib shuni moliya komissiyasining qilgan ishlardan sarhisob bersangiz: 1. Moliya komissiyasi ishladimi? 2. Ishlagan bo'lsa, samarasni ne bo'lди? 3. Ishlamagan bo'lsa, sabab nima? Kimlar ishlamasligiga sababchi bo'lди? Ushbu so'zlarga ushbu savollarga tafsilli, ochiq to'g'ri javobni yozib beruvningizni o'tinaman."

#### Turkiston Muxtoriyatining muvaqqat millat majlisini moliya komissiyasining raisi: /imzo/ "

Muxtoriyat qonga botirilib, uning rahbarları ta'qib ostiga olingach, S. Mirjalilov Qo'qondan chiqib ketishga majbur bo'lди. Avval Turkistondagi o'z uyiga, so'ng Toshkentga kelib, Kuyopatkin ko'chasidagi uyiga yashirinadi. Biroq bolsheviklarning Turkiston muxtoriyati rahbarlariga nisbatan qidiruv va ta'qibi kundan kunga ortib bordi. Mustafa Cho'qay, Obidjon Mahmud Rossiyyaga qochdi. 1918-yil mart oyida S. Mirjalilov ham Toshkentdan

Krasnovodsk, Astraxan orqali Moskva shahriga yetib bordi. Obidjon Mahmudov bilan bir mehmonxonada turadi va ular Turkistonda ro'y berayotgan xunrezliklarga chek qo'yish yo'llarini axtaradi. Moskvadan Kiyevga o'tib, u yerda qo'qonlik savdogarlardan Vadyayevlarning bolsheviklar zulmidan qochib xorriga ketganini eshitadi.

Shundan so'ng Turkiyaga borib, Turkistonda kechayotgan dahshatlar haqida jahon hamjamiatini ogohlantirishga qaror qiladi. S. Mirjalilov Odessaga o'tib, 1918-yil yozida Kavkaz orqali İstambulga yetib keladi. U Anvar poshsho hukumati bilan ag'darilgan "Turkiston muxtoriyati" hukumati vakili sifatida muzokaralar olib boradi. Bu vaqtida Toshkentdan Munavvar qori Abdurashidxonov tavsiyasi bilan "Sho'roi Islom" vakili bo'lib mufti Sadreddinxon Sharifxo'jayev kelgandi. Ayni masala bilan "Ulamo" jamiyati ham Turkiyaga Nuriddinbek Xudoyorxonov va G'ozı Olim Yunusovni jo'natgan edi. Rasmiy Turkiya bu vaqtida o'zining ahvolini nazarga olib Turkiston muxtoriyati uchun bevosita yordam bera olmasligini, agar Turkistondan maxsus hay'at tashkil etilsa, "Antanta" hukumati rahbarlari bilan uchrashishiga imkoniyat yaratib berishi mumkinligini ma'lum qiladi. "Ulamo" jamiyati vakillari bu yordamni rad etib, Toshkentga qaytadi.

S. Mirjalilov İstambulda qolib, Turkiyada yashayotgan Shohid Ehson Musayev, Nuriddin hoji Musoboyev kabi ko'plab vatandoshlar bilan uchrashadi. Bokuga Botumi orqali ingilizlar kelib, bolsheviklar chekinishga majbur bo'ladi va hokimiyatni musovvatchilar qo'lga oladi. S. Mirjalilov Bokuga undan Krasnovodsk orqali Toshkentga keladi va Turkiyada olib borgan ishlari haqida Turkiston taraqqiyatparvarlariga xabar beradi. İkki hafta Toshkentda bo'lib maxsus hay'at masalasini muhokama qiladi. Turkistonga borib oilasidan xabar olingach, Buxoroga yo'l oladi. Kogondan Krasnovodsk-Karki-Taxtabozor orqali Bokuga borib, Vadyayevlar vakillari bilan uchrashadi va Turkistondan keladigan maxsus hay'atni kuta boshlaydi. Biroq Mahmudxo'ja Behbudiy va uning hamrohlarining Qarshida sirli o'limi barcha rejalarining chippakka chiqishiga olib keldi.

Bokuda bolsheviklar hokimiyatni qo'lga olishi bilan S. Mirjalilov 1919-yil yozida Tiflisga keladi va ikki yil davomida M. Cho'qayev bilan birga Tiflisda qolib ketadi. 1920-yil sentabrda Bokuda bo'lgan Sharq xalqlari konferensiyasida ham ishtirok eta olmadi. Voqeliklarni faqat gazetalardan o'qib, konferensiya ishtirokchilari bilan xat orqali aloqada bo'ladi.

1921-yil yozida S. Mirjalilov Botumi orqali yana İstanbul shahriga boradi. Uch-to'rt oy davomida M. Cho'qayev bilan bir mehmonxonada yashab Turkistonnning kelgusi masalasida muzokaralar olib boradi. Biroq vaziyat chigalligicha qolaverdi. Mustafa Cho'qay İstanbulda qoldi. S. Mirjalilov hayotini Vatandan va oilasidan uzoqda tasavvur eta olmadi. U qolgan umrini ham

milliy istiqlol va ittihod uchun kurashga qaror qiladi. 1921-yil so'ngida bolsheviklar e'lon qilgan umumiylaf tufayli Turkistonga qaytib, Botumi Boku orqali 1921-yil dekabrida Toshkentga kirib keladi. Bir muddat Tolibjon Musoboyev, Najmiddin Sherahmadboyevning uyida yashab, Obidjon Mahmudov, Nazir To'raqulovlar yordamida Toshkentda doimiy yashash uchun ruxsat oladi.

1922-yil boshida S. Mirjalilov Turkiston hukumatidagi mahalliy rahbarlar, jumladan, Abduqodir Qushbegiyev, Ali Rasulev bilan maslahatlashgan holda, sobiq hamkorlari Muhiddin qori chinnifurush, namanganlik paxta savdogari Qodirbek, toshkentlik boyalar Najmiddin Sherahmadboyev, Mirodil Mirzaahmedov, Tolibjon Musoboyev bilan "Turkiston" savdo-sanoat shirkatini tashkil etdi. Shirkat daromadining asosiy qismini o'lkada maorif va madaniyatni yuksaltirish sohasiga qaratadi. Jumladan, "Ko'mak" jamiyati orqali iste'dodli yoshlarni Germaniya va boshqa mamlakatlarga o'qishga yuborishga homiylik qildi.

1923-yil yanvar oyida Toshkentda "Nashri maorif" jamiyati ochilganida S. Mirjalilov, T. Musoboyev uning ta'sisichilariga aylanadilar. Shirkatga "Nashri maorif" jamiyati faoliyati uchun "Vaqf" idorasini va o'zbek ayollarini maorifi instituti mudirasi Yenikeyeva katta miqdorda pul, Shokirjon Rahimiy 500 pud g'alla, shu kabi boshqa homiylar ham juda ko'p miqdorda xayriya va ionalar ajratadi. Bu pul va mollar bilan shirkat ishi yanada kengroq ko'lam kasb etadi. 1924-yilda Toshkentdagidagi Voskresenskiy bozorida katta manifakturna do'konni bo'lib, uning yonida qator ishlab chiqarish ustaxonalarini ham tashkil etgan edi. Ayniqa, quruq meva va qandolatchilik sohalari bilan sho'rolar mamlakatining markaziy shaharlarigacha kirib borayotgan edi. Bundan tashvishga tushgan sho'ro kuch tizimlari "Turkiston" o'rtoqlik jamiyati faoliyatiga turli yo'llar bilan bosimlar qo'llay boshlaydi.

1925-yil 27-sentabr kuni Tojixonov degan kimsaning guvohlik berishicha, 1924-yili Eshonquli dodho madrasasida Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Saidnosir Mirjalilov, Tangriqulhoji Maqsudi, Rustambek Niyozbekov kabi 10 nafr Toshkentning taniqli taraqqiyatparvarlari to'planib, xorijda tahsil olayotgan turkistonlik talabalarga moddiy yordam berish masalasini muhokama qilganlar. Majlis davlatmand vatandoshlardan pul yig'ib, bu ishga S. Mirjalilovni g'aznachi va Tangriqul hoji Maqsudiyni kotib etib tayinlaydi.

1925-yil 8-dekabr kuni Agidullin tomonidan Saidnosir Mirjalilov aksilinqilobiy faoliyatda ayblanib qamoqqa olish uchun qaror chiqarildi. 1925-yil 9-dekabr kuni bitilgan order asosida 12-dekabr kuni Toshkent shahri Shayxontohur mavzesi Tarnovboshi mahallasiagi Abduvahob Ataboyevga tegishli xonadondan hibsga olinadi. Tintuv vaqtida Saidnosir Mirjalilovga oid jomardon, chemodan, portfel, savdo hujjatlari va ko'plab kitoblar xatga olinib, olib ketildi. 1925-yil 13-dekabr kuni to'ldirilgan shaxsiy

anketasiga binoan uning oilasi - turmush o'rtoq'i Qumrixon (1887), qizlari Zulfiya (1906), Zarifa (1909), Sharifa (1912), Ravza (1918) va Muborak (1923)dan iborat edi.

1925-yil 20-dekabr kuni ilk so'roq jarayonida o'zining hayoti va ish faoliyati haqida, shuningdek "Fuqaho" jamiyatni rahbari ulamo mufti Sadreddinxon Sharifxo'jayevning Turkistondan chiqib ketishi bilan bog'liq voqeqlilar haqida so'rab surishtiriladi.

1925-yil 26-dekabr kuni S. Mirjalilov GPU boshlig'i shikoyat arizasi yozib, o'n kun avval yozgan ariza hamon javobsiz qolayotganini eslatadi. O'ziga oilasi tomonidan yuborilgan narsalarning qaytarib yuborilayotgani, tishi singani tufayli tish shifokoriga borishga ruxsat berilmayotganini hamda qamoq nizomini buzgan holda mahbuslarga o'qish uchun kitoblar berilmayotganini ma'lum qiladi. Shuningdek, "men müslimman, hamma ovqatni ham yeşa olmayman", deb, uyidan keltirilgan ovqatlarining kiritilishiga, ichki kiyimlarini almashtirishi uchun ruxsat berishini so'raydi. Albatta, bu haqli talablar allaqachon insoniyigini yo'qotib bo'lgan sho'ro ma'murlari uchun hech narsani anglatmas edi. 1926-yil 1-yanvar kuni Zulfiya Mirjalilovning otasi bilan uchrashuv haqidagi so'rovi ham e'tiborsiz qoldiriladi.

1926-yil 12-yanvar kuni o'tkazilgan so'roqda S. Mirjalilov o'zining Mustafa Cho'qay bilan aksilinqilobiy maqsaddagi aloqalarini rad etdi. 1925-yili talaba Tohir Shokirovning otasi Shokir Roziqboyevning iltimosi bilan Germaniyaga 30 dollar pul yuborganini tan oladi. 1926-yil 7-fevral kuni so'roqda tintuv vaqtida olingen savdogar Amir Gali Ibragimov, kitobfurush Ahmad Ishoqovning xatlari, Hamza Hakimzodanining kitoblari, shuningdek Germanning Moskvadagi "Axati stirat" firmasi, Finlandiyada yashagan asli toshkentlik savdogar Hasan afandilar orqali Germaniyada ta'lim olayotgan talabalarga pul yo'llagani muhokama qilinadi.

1926-yil 22-aprel kuni Toshkentdagidagi O'rta Osiyo SOPP OGPU rahbari Agidullin S. Mirjalilovni O'zSSR JKning 62-moddasi bilan ayblab, qaror chiqaradi. 1926-yil 24-aprel kuni so'roqda S. Mirjalilov o'zining Turkiston muxtoriyati uchun kurashgani, biroq keyinchalik bu insonlarga sho'ro hukumati tomonidan amnistiyaga berilganini eslatadi. Shuningdek, xorija talabalar yuborish ham aynan Turkiston MIK qarori bilan amalga oshirilgani va buning noqonuniy tarafi yo'qligi, demak, 62-modda unga nisbatan noto'g'ri qo'llanganini ta'kidlaydi. Natijada 1926-yil 8-may kuni Agidullin o'zining qarorini o'zgartirib, uni aksilinqilobiy unsurlar Obidjon Mahmudov, Ubaydulla Xo'jayev, Rustambek Niyozbekov, Vadim Chaykin bilan aloqada bo'lgan deb, O'zSSR JKning 66-, 67-moddalarini bilan ayblaydi.

(Davomi gazetaning keyingi sonida)

**Bahrom IRZAYEV,**  
"Qatag'on qurbanlari xotirasi"  
davlat muzeyi bosh ilmiy kodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Shahidlar – tirkdirlar

# Abdulla akaning maktubi...



Ish stolimning batartibligi bilan maqtana olmayman.

Vaqti-vaqti bilan qog'ozlarimni, kitoblarimni tartibga solaman. Bu gal ishga jiddiyroq kirishdim.

Kitoblarimning ayrimlarini kitobsevar yaxshi insonlarga hadya qildim. Bu ishni sevina-sevina bajardim, deb aytolmayman. Baribir kitoblarimning ishonchli qo'llarda ekani ko'nglimni xotirjam qiladi.

Kitoblar orasiga tiqilgan qalingina qog'ozni unutgan ekanman. Nima ekan, deb ochib ko'rdir. Astoydil joylashtirganidan ichida qadrli nimadir borligini yuragim sezdi. Xuddi o'ylaganimdek. Adashmabman. Abdulla akadan kelgan maktub ekan. Abdulla Barnoyevdan, qahramonimiz, shahidimiz Ulug'bek Barnoyevning otasidan kelgan maktub. Xat oxirida 11.01.2013-y. sanasi ko'rsatilgan. Ya'ni 2013-yilning 11-yanvarida yozilgan.

Tahririyatga xatlarning kelishi yangilik emas. Ammo... aslida xat oddiy narsa emas. Har bir xat ortida inson bor. Uning kechinmalari, isyonlari, orzu-armonlari, umidlari qog'ozga to'kilgan. Va u ba'zan xat, ba'zan hikoya, ba'zan qissa shaklida dunyo yuzini ko'radi.

Abdulla aka avvallari ham tahririyatimizga maktublar yozgan. Bittasining mazmuni shunday edi: "...o'g'lim jangovar topshiriqlar oldidan har doim safdoshlari bilan boshlarini boshlariga qo'yib, Abdulla Oripovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni" she'rin kuylar ekan". Ulug'bek Barnoyev Vatan uchun aziz jonidan kechgan yagona o'g'lon emas. Deyarli barchasining ota-onalari, yaqinlari bilan suhabatlashganmiz. Birovining qaddini farzand g'ami dol qilgan,

birovining yuragini asraging keladi, birovi ko'nglida to'lib-toshib yotgan tuyg'ularini so'zda ifodalashga qodir emas, birovi gapirganda yomg'irdek to'kiladi...

Abdulla aka esa ko'zlarining tubida ko'rinish turgan mung bilan Ulug'bek haqida eng yorqin xotiralarini gapirib beradi, maktublar yozadi. Ko'pdan tahririyatga bunday xatlar kelmay qo'yidi... Abdulla aka, nega yozmayapsiz? Bizdan biror e'tiborsizlik o'tdimi?

Qo'limdagagi Abdulla akaning maktubi oq qog'ozda, bejirim husnixatda, besh betda bitilgan. Bu xat osonlikcha yozilmagan, yozuv qatorlari orasida otaning "bolammm!" degan sassiz faryodi bor! Ulardan parchalar keltiraman. Bu parchalar hech qanday o'zgartirishlarsiz, aynan o'zi keltirilmoqda! Maktubda birgina o'g'li Ulug'bek haqida emas, uning safdoshlari haqida ham yozilgan. Shahidimizning otasi bularni qahramon jangchining ota-onasi ziyyaratiga kelgan safdoshlaridan eshitgan.

"Sirdaryolik Elomon Otajonovning ratsiya orqali guruh komandiriga aytgan oxirgi so'zi: "Ikkala qo'limdan yaralanganman, qarshimdan dushmanlar kelyapti, yordamga yetib kelishga ulgurmaysizlar. Ota-onamga yordam beringlar, alvido!!!"

O'lim bilan yuzma-yuz pahlavonning oxirgi nafasi ham, oxirgi zikri ham, oxirgi vasiyati ham ota-onasi – Vatani bo'lgan".

"Jang maydonida qolgan yaradorlarni, shahidlarni olib chiqish uchun leytenant Sayyor Sadinov tajribali yigitlardan saralab oldi. Vaholanki asosiy kuchlar yetib kelishini kutishi mumkin edi. Ammo Vatanga, safdosh do'stlarga sadoqati bunga yo'l qo'ymadidi. Pistirmadagi dushman snayperi uni ham ko'ksidan yaraladi. Qilingan muolajalarga qaramasdan yarasidan qon oqib turdi. Shunday bo'lsa ham qo'l ostidagi jangchilarini saqlab qolish uchun qaytishda (*tog' so'qmog'ida bittadan orqama-orqa yurish mumkin*) oxirda qolib, bir qo'li bilan qon sizib turgan yarasini, bir qo'li bilan avtomatini ushlab, qo'riqlab keldi. Ko'p qon yo'qotganligi sababli yordamga yetib kelgan vertolyotda jon berdi..."

"...Dushman radioto'lqinini eshitib turgan radistimizning aytishicha, vahimaga tushgan dushmanlar rahnamolariga: "O'zbek askariga bir o'q uzsang, avtomatini ham tashlab qochadi, deb aytuvdinglar, bular o'limga ham tikka kelyapti-ku, chekinmasak bo'lmaydi", degan o'z tilida. Rahnamolari: "Ular yo yetimxonadan yoki yollangan kallakesarlardan bo'lsa kerak, jangni davom ettiring. Hozir yordam kuchi yetib boradi", deyishgan".

"Qurolli Kuchlarimizning har jahbada mukammallashayotganini xorijning yetuk harbiylari tomonidan berilgan baholarida, o'g'illarim misolida ko'rdirim,

eshitdim, guvoh bo'ldim. 1999–2000-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlari bilan harbiy hamkorlik sohasida Chirchiq poligonida qo'shma mashqar o'tkazilgan. O'g'lim Ulug'bekning safdosh do'stlari xotirlashicha, Amerika harbiylari uning mashqlarda ko'rsatgan shiojatiga tan berib, musobaqalarda undan o'ta olishmagani uchun "Robot askar" deya alqashgan. Qurolli Kuchlarimiz hali yosh edi, endigina 7–8 yoshlarda edi, o'shanda".

"Vatan – bu yurakdagi titroq, Vatan – bu bir siqim aziz tuproq. O'g'lim Ulug'bek hovlimizdan bir siqim tuproq olib xaltachada ko'kragida olib yurardi..."

Vatanim tuprog'i, ona zamin tuprog'i, shu aziz tuprog'imiz uni o'z bag'riga oldi, Allah mangulik ato etdi..."

"Hazrat Abdurahmon Jomiy aytganlar:

Ko'plar molin berib mardlik qiladi, Mardlar jonin berib mardlik qiladi.

O'g'lim Ulug'bek Barnoyev safdosh do'stlariga jang oldidan: "Hali ota-onamlarga ko'p yaxshilik qila olmadim", degan ekan.

Ota-onaga, Vatanga bundan ortiq yaxshilik, bundan ortiq qarzni uzish bormi, azizlarim?!"

Mana senga Vatan himoyachisi, mana senga fidoyi farzand – Vatan!"

"Yarador do'stlariga jang qizigan paytda yordam berishning hech iloji yo'q, dushman bosh ko'tarishga imkon bermaydi. Yordamga borish o'lim bilan barobar paytda serjant Ulug'bek Barnoyev do'stlarining ingrab yotishiga chiday olmaydi... O'zini to'sib turishlarini aytib, yarador do'sti serjant Ma'rufjon Rajabov yoniga yetib bora oladi, oyoq kiyimini yechib tashlab, og'riqi qoldiradigan muolajani qilib, panaga olib o'tadi. Guruh feldsheri yarador Qahramon Madolimov yoniga borayotganda dushman snayperi o'qiga uchraydi..."

"Mana, mustaqil Respublikamiz Vatan deb jon fido qilgan yigitlarimiz, mard o'g'lonlarimiz yoshiga yetarkan-ku?! Dilimdag'i iymonga qulqut tutib, komil ishonch bilan baralla ayta olamanki, mustaqil Vatanimiz hali asrlarga tengdosh yoshlarga yetadi".

\* \* \*

Azizlar, qutlug' ayyom nafasi kezib turgan shu lahzalar, yorug' damlar, osudalik haqqi-hurmati shahidlarimizning ota-onalariga ehtirom ko'rsatishning ayni vaqtidir. Ular ham keksaymoqda, ayrimlari oramizda yo'q. Ularni borida e'zozlaylik, ziyyaratlariga farzandlarimiz bilan boraylik. Vatan deya aziz jonidan kechgan jasur jangchilarning mo'tabar ota-onalarini jajjilarimizga tanishtiraylik. Shu taripa mitti yuraklarga Vatan muhabbatini singdiraylik!

Inobat IBROHIMOVA,  
"Vatanparvar"



“So'nggi yillarda mamlakatimiz Qurolli Kuchlariga, harbiy xizmatchilarning xizmat o'tash sharoitlarini yaxshilashga qaratilayotgan e'tibor tufayli bugungi kunga kelib ko'plab harbiy obyektlar, dala-o'quv maydonlarining infratuzilmasi butkul yangicha qiyofa kasb etib, zamonaviy ko'rinishga ega bo'lmoqda. Bularning barchasi harbiy kasb nufuzini oshirish, harbiy xizmatchilarga qulay va xavfsiz xizmat sharoitlarini yaratishga qaratilgan davlatimiz siyosatining muhim bo'g'ini hisoblanadi.

Qoraqlopg'iston Respublikasida ham amalga oshirilayotgan o'zgarish va yangilanishlar mamlakat mudofaa salohiyatini oshirish, harbiy xizmat nufuzini yuksaltirish, xalqimizning armiyaga bo'lgan yuksak ishonchini kuchaytirish, armiya va xalq o'rtasidagi rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

Istiqlolimizning 33 yillik ayyomi shukuhi yurtimiz bo'ylab kezayotgan shunday faraxbaxsh kunlarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyoti va istiqboliga, asosiysi xalqimiz uchun xizmat qiladigan yangi yangi imoratlar, obyekt va inshootlar foydalanishga topshirilmoqda. Mustaqillik bayramiga tuhfa sifatida Nukus shahrida o'zida ikkita harbiy obyektni jamlagan, kapital ta'mirdan chiqqan majmuuning foydalanishga topshirilishi, yurt himoyachilarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlar yo'lidagi islohotlarning samarasini namoyon etmoqda.

Endilikda mamlakat mudofaasi uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash, yoshlarda vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat tuyg'ularini yuksaltiradigan, dastlabki harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlaridan saboq beradigan Nukus garnizonidagi safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyoni hamda Qoraqlopg'iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasi huzuridagi Chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash markazi uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etildi.

Majmuuning tantanali foydalanishga topshirish va safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyoni xizmatchilarining Vatanga qasamyod qabul qilish marosimida Qoraqlopg'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi Amanbay Orinbayev, O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining o'rnbosari polkovnik Alisher Norboyev, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov,

kuch tuzilmalari vakillari, Qurolli Kuchlar faxriylari, chaqiriluvchilarning ota-onalari va yaqinlari ishtirot etdi.

So'zga chiqqanlar, barchani O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 33 yillik bayrami bilan samimiy muborakbod etishdi. Mazkur majmuuning aynan Qoraqlopg'iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasi hamda boshqarma qoshidagi yig'in punkti joylashgan hududda qurilishi Prezidentimiz rahbarligida shu yilning yanvar oyida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashi yig'ilishida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, armiyaga chaqiruv tadbirlarini sifatlari o'tkazish uchun barcha shart-sharoitlar yaratish hamda harbiy tayyorgarlik fanini o'tkazish sifatini oshirish bo'yicha bergen topshiriqlarni bajarish maqsadida "Qoraqlopg'iston tajribasi" yangi tizimining samarador ekanini namoyish etish uchun yaratilgani e'tirof etildi.

Majmuada safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyoni xizmatchilari uchun 12 ta

jangovar va ma'nnaviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari bilan shug'ullanish imkonini beruvchi alohida uch qavatli o'quv binosi yaratilib, unda 20 ga yaqin mashg'ulot xonasi, Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi o'gitlari, qahramonliklarini o'zida namoyon etuvchi tematik sinflar, 120 o'rinni anjumanlar zali, badiiy adabiyot, o'quv qo'llanmalar va elektron nashrlarga boy kutubxona, Internet global tarmog'iga ulangan kompyuterlashtirilgan panoramali o'q otish sinfi, zamonaviy sport anjomlari va yopiq turdag'i zalga ega bo'lgan sport majmuasi hamda tibbiyot puknti bugungi kun talablari asosida jihozlandi.

Alohida to'rt qavatli shtab binosida batalyon boshqaruvi uchun navbatchilik xonasi, xizmat xonalari hamda safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatchilari uchun sanitar tizimlarga ega bo'lgan 400 o'rinni yotoqxona qurildi.

Saf tayyorgarligi mashg'ulotlari, harbiycha an'analarga asoslangan tantanali tadbirlarni o'tkazish

# fondalanishga topshirildi!




uchun saf maydoni, 500 o'ringa mo'ljallangan va autsorsing tizimi asosida faoliyat yuritadigan oshxona majmuasi, qo'shimcha 200 o'rini katta sanitar tizim bunyod etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yildagi "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiriluvchilarini harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi mudofaafiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining ayrim ta'lim muassasalari va avtodormlarini asosiy vositalari, o'quv va moddiy-texnik bazasi bilan birkalikda operativ boshqarish huquqi asosida Mudofaa vazirligi qabul qilib olgan edi. Shu bois 2019-yildan vazirlik tizimidagi mudofaa ishlari boshqarmalari huzurida Chaqiriluvchilarini harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash markazlari faoliyati

yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda milliy armiyamiz uchun eng zarur kadrlar, ya'ni chaqiruv yoshidagi yigitlar beg'araz asosda ta'lim olishi yo'lga qo'yilgan.

Nukus shahrida joylashgan ana shunday markazda uchta harbiy-texnik mutaxassislik - "B" va "C" toifali haydovchilar, o'qli-oshpazlar hamda dizelchi-elektriklar 3,5 oy davomida sifatli tayyorlab kelmoqda. 2019-yildan bugungi kunga qadar Qurolli Kuchlarimiz saflariga jami 593 nafar tayyor mutaxassis, shulardan 250 nafar haydovchi, 207 nafar o'qli-oshpaz hamda 136 nafar dizelchi-elektrik tayyorlanib, ularning barchasi muddatli harbiy xizmatga birinchilardan bo'lib chaqirtirilgan edi. E'tiborlisi, bu dargohda ta'lim olgan yoshlarning 50 nafardan ziyodi armiyani o'tab, harbiy xizmatda kontrakt bo'yicha qolgan hamda oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish baxtiga muyassar bo'lgan.

Markazda yoshlarni ma'naviy-axloqiy hamda harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga dastlabki harbiy tayyoragarlik ham o'qitib boriladi. Demakki, bu yerni

o'rgatish uchun endilikda ikkita o'quv binodan iborat 15 ga yaqin nazariy mashg'ulot xonasi, ta'lim yo'nalishlari bo'yicha amaliy mashqlarni o'tkazishga mo'ljallangan hamda o'qitilayotgan texnikalarning ichki mexanizmlari ish tartibini ko'rsatuvchi o'quv amaliyot binosi yaratildi.

Markaz armiya uchun kerakli mutaxassislarni yetishtiribgina qolmay, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, yurtga sadoqat, mamlakat buguni va kelajagi uchun jonkuyar avlodni tarbiyalab kelmoqda.

Markazda ta'lim olayotgan kursantlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak va maishiy ta'minoti davlat byudjeti tomonidan qoplanadi. Har yili markaz 110 nafar qoraqalpog'istonlik yoshga ta'lim-tarbiya berib, kasbga o'qitadi hamda armiya saflariga ketish uchun tayyorlab beradi.

Ta'lim jarayonida yoshlarga gumanitar-ijtimoiy, texnik hamda boshqa fanlar bilan bir qatorda dastlabki harbiy tayyoragarlik ham o'qitib boriladi. Demakki, bu yerni

tamomlagan yoshlar harbiycha hayot tarziga anchagina ko'nikib, armiya saflariga yo'l oladi.

Tadbir davomida mustaqilligimizning 33 yilligi munosabati bilan Mudofaa vazirligi tomonidan otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik majmuaviy musobaqalarining final bosqichi yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining kubogini olib kelgan Taxtako'pir tumani yoshlari jamoasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan mukofotlandi.

Tantanali marosimdan keyin mehmonlar hamda safarbarlik chaqiruv rezervi batalyonni chaqiriluvchilarning yaqinlari yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishish uchun majmua bo'ylab ekskursiya qilishdi.

**Podpolkovnik  
Timur NARZIYEV,  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati boshlig'i**



## YURAGIDA TULPORLARNING DUPURI

Atrofni chang-toʼzon tutdi. Chavondozlar biri olib-biri qoʼyib uloqni dast koʼtarish harakatida edi. Ot ustida muvozanatni saqlash, raqiblarning urho-ur, torta-tortlariga dosh berish, koʼpchilikdan ajralib chiqib, marrani zabit etish anchagina mashaqqatli. Mudofaa vazirligi kichik serjanti Azizbek Barnoyev buning uddasidan chiqdi. Uloqni olib ketdi – gʼalaba qozondi.

– Yoshligimdan ot minishni, koʼpkarilarda qatnashishni yoqtiraman. 40–45 kg uloqni manzilga eltib qoʼyish nima boʼlibdi – yigit kishining yuragida tulporlarning dupuri urib tursa, u har qanday yuksak choʼqqini zabit eta oladi. Kasbini sevgan inson esa mehnatdan ham rohat oladi. Hozir biz qaysi ot poygaga yaxshi, qaysi biri yuk tashishga, qanchalar zotdor ekanini darhol ajratib olamiz, – deydi u.

Qizgʼin joyini aytib oldik, hovurimiz bosildi. Endi sizlarni bu hodisa qayerda boʼlayotgani bilan tanishtirsak.

Toshkent harbiy okrugi “Chirchiq” dala-oʼquv maydoni hududida barpo etilgan yangi otxona majmuasi foydalanishga topshirildi. Tantanali tadbirda mudofaa vaziri oʼrinosari polkovnik Qodir Tursunov, okrug qoʼshinlari qoʼmondoni, Qurolli Kuchlar faxriylari, kuch tuzilmalari rahbarlari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, soha mutaxassislari va harbiy xizmatchilar ishtirot etdi.

Mazkur otxonaning asosiy maqsadi togʼ oldi va togʼ hududlari relyefining notejis joylarida texnikalar harakatlanishi cheklangani sababli jangovar guruhning ogʼir boʼlgan qurollari va oʼq-dorilarini, harbiy anjom va yuklarini sifatli va tezkor tashishga, chegaralarimizda xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchilarning faoliyatiga koʼmaklashadigan jangovar va zotdor otlarni parvarishlash hisoblanadi.

Zamon talablari asosida barpo etilgan majmua ot sporti bilan bogʼliq turli musobaqalarni oʼtkazish, mahalliy va xalqaro maydonda boʼladigan bellashuvlarga munosib ravishda tayyorgarlik koʼrishga moʼljallangan boʼlib, jonivorlarning sogʼlom parvarishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Yoz va qish mavsumiga moʼljallangan otxona, veterinariya bloklari, jonivorlar uchun dush va boʼlmalar mavjud. Mashgʼulotlar, milliy va xalqaro musobaqalar uchun ochiq va yopiq manejarlar shular jumlasidan. Bu yer toʼsiqlar va



sugʼorish tizimlari, otlar yurishi uchun moʼljallangan maxsus inshoot, ot sovutish maydoni bilan taʼminlangan. Otlarni sifatli parvarishlash, ularni musobaqa va jangovar harakatlarga tayyorlash boʼyicha harbiy xizmatchilardan iborat malakali yoʼriqchi-mutaxassislar jalb qilingan.

Tadbirda soʼz oʻlganlar yaratilgan sharoitlar haqida gapirar ekan, harbiy xizmatchilarimizni yangi bosqichdagi yutuqlari bilan samimiyl tabrikldi. Bu kabi eʼtibor va imkoniyatlardan unumli foydalaniib, qoʼshinlarimiz faoliyatida zarur boʼladigan yordamchi, shuningdek milliy va xalqaro musobaqlarda gʼalabaga eltuvchi otlarni yetishtirib chiqarishiga ishonch bildirdi.

Shu kuni yoshlar oʼrtasida milliy sport musobaqlari, kuch tuzilmalari harbiy xizmatchilari ishtirotida esa “Ot poygasi”, “Ot ustida kurash” va “Jamoaviy uloq-koʼpkari” bellashuvlari oʼtkazildi. Gʼolib va sovrindorlar munosib taqdirlandi.

**Mayor Aziz NORQULOV,**  
“Vatanparvar”

Huquqiy targ'ibot

## Manfaatlar to'qnashuvi

Joriy yilning 5-iyun kuni "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Unda qayd etilganidek, qonun davlat organlariga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat muassasalariga, davlat unitar korxonalariga, davlat maqsadli jamg'armalariga, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Qonunda davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi, manfaatlar to'qnashuvi, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma, shaxsiy manfaatdorlik, yaqin qarindoshlar kabi asosiy tushunchalar kiritildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasida maxsus vakolati davlat organi etib belgilandi.

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi tomonidan qonun talablariga riosa etilishi ustidan nazorat ushbu davlat organida yoki boshqa tashkilotda tuzilgan odob-axloq komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Quyida manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uning asosiy ko'rinishlari bilan tanishishingiz mumkin.

**Manfaatlar to'qnashuvi** – shaxsiy (*bevosita yoki bilvosita*) manfaatdorlik Mudofaa vazirligi tizimida xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan Mudofaa vazirligi tizimida huquqlari va qonuniy manfaatlar o'tasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.



**Yaqin qarindoshlar** – qarindosh yoki quda tomongan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'nı ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari.

**Aloqador shaxslar** – xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi holatlari bundan mustasno.

**Davlat organlarida** – o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimiga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (*shaxsiy, ijtimoiy, moliviyyi, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari*):

**Lobbizm** (ingliz. *lobby* – kuluar, koridor) rasmiy vakillar bilan norasmiy shaxslarning o'zaro uchrashib, rasmiy qarorlar qabul qilishdagi siyosiy ta'sirning o'ziga xos turi;

**Rahnamolik**, favoritizm (*fr. favorit*) himoya ostidagi ayrim xodimlarni yaqin olish va qo'llab-quvvatlash;

**Kliyentelizm** (ingl. *clientelism*, lot. *cliyentēla* – mijoz) – yuqori lavozimdagagi mansabdor shaxs va unga xayriyoh bo'lgan shaxslar (*mansabdor shaxslar, tadbirkorlar, siyosiy guruhlar*);

**Proteksionizm** (lot. *ko'maklashish*) ma'lum bir shaxslarni lavozimga tayinlashga ko'maklashish;

**Nepotizm** (lot. *nepos jiyan*) qarindosh-urug'chilik, hududiy yoki etnik prinsiplar asosida davlat tuzilmalarida yoki boshqa tuzilmalarda tor guruhchilik manfaatlarini bilan ish ko'rish;

**Kronizm** (ingliz. *hamfikr, tarish-bilishchilik, guruhbozlik*) lavozimlarni tanish-bilishchilik asosida do'stlarga berish;

**Pantuflaj** (fran. *shippakni almashtirish*) davlat xizmatchisi davlat sektoridan ketib, xususiy sektorga ishga joylashishi tushuniladi.

Jamiyatga katta zarar keltiradigan illatlardan biri – manfaatlar to'qnashuvi. U bor joyda sohalar rivojlanish o'rniiga, orqaga ketadi, millat potensiali zavolga uchraydi.

**Podpolkovnik Po'lat NOSIROV,  
Mudofaa vazirligi korrupsiyaga qarshi  
ichki nazorat bo'limi boshlig'i**

Vatanparvarlik aksiyasi

## Mehr-saxovat ularashildi

Muhtoj bo'lib qolgan vatandoshlarimizga yordam qo'lini cho'zish, ularning yumushini yengillatish, olis manzillarda istiqomat qilayotganlarning holidan xabar olishni maqsad qilgan Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari bu safar ham eng uzoq manzillarga yo'l oldi.



O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 33 yilligi bayrami tarovatini yurtimizning olis hududlarida istiqomat qilayotgan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj vatandoshlarimizga yetkazishni maqsad qilgan yurt himoyachilarining tashrifи barchada iliq taassurot goldirdi.

"Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanmiz!" shiori ostida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'ylab harbiy xizmatchilar tomonidan o'tkazilayotgan saxovat va ko'mak tadbirleri, uchrashuv va konsert dasturlari xalq va armiya yakdilligini ifodalab, yurtdoshlarimizga xush kayfiyat ulashmoqda.

Olis manzillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sust bo'lgan qishloq va ovul ahliga amaliy yordam ko'rsatish, ular holidan xabar olish, moddiy va ma'naviy ko'mak berish maqsadida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinchilari qo'mondonligi tashabbusi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumanidagi "Qos terek" hamda Qorao'zak tumanidagi "Qo'yboq" mahalla fuqarolar yig'inlarida "Mehr-saxovat" aksiyasi o'tkazildi. Harbiylar tomonidan tashkil etilgan mazkur ezgu tadbir davomida jami 200 ga yaqin oilaga moddiy va ma'naviy ko'mak berildi.

Shunday xayriya aksiyalari doirasida mahallalarda "Armiya va yoshlar" uchrashuvlari, festival va konsert dasturlari o'tkazilib, vatanparvarlikni tarannum etuvchi kuy va qo'shiqlar, shodon navolar ovul ahli va yoshlarga bir olam shodlik ularashib kelmoqda.

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida yosh avlodni vatanparvarlik, yurtga sodiqlik, fidoyilik ruhida tarbiyalash kabi oliyjanob maqsad mujassamligi, mehr-saxovatga yo'g'rilgan sa'y-harakatlar xalq va armiya birdamligini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'lmoqda.

"Qos terek" hamda "Qo'yboq" ovul ahliga salomatlik ularashish maqsadida kelgan Nukus harbiy gospitali mutaxassislari aholi va bolalarni beg'araz tibbiy ko'rirkdan o'tkazishdi, tezkor laboratoriya tashxisi, ultratovushli apparat tekshiruvi hamda boshqa shifokorlarning sayyor qabuli tashkil etildi. Qo'chma mobil harbiy tibbiy markaz hamda harbiy gospitalidagi so'nggi rusumdagiz zamoniaviy tibbiy tekshiruv uskunlari imkoniyatlaridan unumli

foydalanilgan holda harbiy shifokorlar yuzlab vatandoshlarimizga tibbiy maslahat, muolaja va tibbiy xizmat ko'rsata olishdi.

Odamiylik, mehr-oqibat, insonparvarlik, bag'rikenglik kabi ezgu amallar xalqimizda azal-azaldan ulug'lanib kelinadi. Insonparvarlik fazilatlari bizda qadriyat darajasiga ko'tarilib, ajdoddardan meros sifatida qadrlanadi.

Harbiy xizmatchilardan iborat saxovat guruhi ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan vatandoshlarimiz uylariga borib, ular holidan xabar olishdi, moddiy va ma'naviy yordam berishdi.

Mustaqillik ayyomi arafasida kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan hamda jismoniy imkoniyati cheklangan aholiga birlamchi oziq-ovqat mahsulotlari, oyoq kiyimlar, mebel va oshxona jihozlari tarqatildi.

**Kichik serjant Abdullajon UMARALIYEV,  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati**



# Dadam haqida yozing

Bekatdaman. Yonimda besh-olti nafar bolalar qo'llarida sport sumkasi bilan bir-birlarini itarishib, surishib turishibdi.

– Sport to'garagiga qatnaysizlarmi? – so'radi ulardan.

– Ha, ta'tilda har kuni qatnayapmiz, hademay o'qish boshlansa, haftada 2 marta shug'ullanamiz.

– Sportning qaysi turiga qatnayapsizlar, – deya savol berishda davom etdim.

– Men suzishga, ikki o'rtog'im futbolga qatnayapmiz. Vohid esa boksga boryapti, – dedi mittigina bolakay chaqqonlik bilan.

– Vohid kim? – dedim men.

– Ana, harbiy futboldagi, – dedi mittivoy.

– Vohidjon, issiqda harbiy kiyimda qiyalmayapsizmi? – so'radi undan.

Vohid javob berishga ulgurmay, mitti bola "e xola, u qishda ham, yozda ham harbiy kiyimda yuradi", dedi.

Bolalar kulib yuborishdi. Ulardan bittasi "qishda ham, yozda ham bir xil kiyimda", degan edi, bolajonlar jo'r bo'lib Vohid deya baqirishdi. Bolalar beg'ubor hazil qilishdi. Lekin Vohidning yuz-u ko'zlaridagi o'zgarishni ko'rib, vaziyatni yumshatmoqchi bo'ldim va Vohidjon, harbiy kiyimni yoqtirar

ekansiz-da, demak kelajakda harbiy bo'lsangiz kerak-a? dedim. Shunda bolakayning ko'zlarini chaqnab "ha, men harbiy bo'laman", dedi.

– Barakalla, Vohidjon! Sizdan zo'r harbiy chiqadi, – dedim.

Shu payt avtobus keldi-yu, bolajonlar qiy-chuv qilib avtobusuga o'tirib, jo'nab qolishdi. Men ularning samimiy so'zlarini, sho'xliklari va xatti-harakatlaridan zavq oldim.

– Ustoz, o'qituvchimisiz? – degan ovozdan keyingina atrofga razm soldim. O'girilib ortimga qarasam, Vohidjon turibdi. Iye, ketmadingizmi, dedim unga. "Mening uyim boshqa tomonda" dedi u. Men unga o'qituvchi emas, jurnalist ekanimni aytdim. Vohidjon yanada quvonib ketdi.

– Ustoz, unda mening dadam haqida yozing, – dedi u.

– Xo'p, dadangiz nima ish qiladi? – dedim.

– Dadammi, dadam zo'r harbiy, u Vatanimizni, bizni qo'riqlaydi, – dedi faxr bilan.

– Voy, buncha yaxshi. Shuning uchun siz ham harbiy bo'larkansiz-da, yashavoring, – dedim Vohidjonning ko'nglini ko'tarish maqsadida.

– Ha, katta bo'lsam, albatta harbiy bo'laman va dadam bilan uchrashaman. So'ng dadam ikkimiz Vatanimizni, onamni, hammani himoya qilamiz, – dedi u ko'zlarini yonib.

– To'xtang-to'xtang, dadangiz siz harbiy bo'lguncha xizmatdan qaytmaydi, deb o'ylaysizmi? – dedim hayron bo'lib.

– Ha-da, dadam harbiya ketganida men chaqaloq ekanman, dadam harbiyda adashib qolib, ugya kelolmayapti, lekin bizni himoya qilib yuribdi ekan, oyim shunday deydi.

A'zoyi badanim titrab ketib, tilim kalimaga kelmay qoldi. Vatan osoyishtaligi, xalq tinchligi yo'lida

jon bergen fidoyining, jasur va mard harbiyning ota mehriga zor, sog'inchisib yosib o'g'loni. Otang tirik, u umrbod harbiy xizmatda, deb ishontirorgan sabri dur, bardoshi tosh onaning umidi...

– Dadangizni ko'rsangiz, taniysizmi? – dedim hayajonimni bosishga urinib.

– Albatta, taniyman, harbiy kiyimda tushgan rasmlari bor, keyin men quyib qo'ygandek dadamning o'zi ekanman. Mahallamizdagilar meni kichik Zohidjon deb chaqirishadi.

– Vohidjon, siz yaxshi o'qing, sportni tashlamang. Maktabni tugatgach, albatta, harbiy xizmatga borib, dadangiz bilan uchrashasiz va birgalikda xizmat qilib, birga ugya qaytasizlar, – dedim o'zimni arang tutib.

– Ustoz, menga telefon raqamingizni bering, ugya borib dadamning suratlarini jo'nataman. Siz dadam haqida chiroyli maqola yozib, gazetada chiqarasiz. Men uni asrab qo'yib, dadamga olib boraman, – Vohidjonning hovliqib, quvondan bilan gapirishi yuragimning bir tomonini yulib ketdi. Sir boy bermaslikka harakat qilib, unga telefon raqamimni berdim.

Vohidjon men bilan xursand xayrashib, avtobusga o'tirib, uyi tomon jo'nab ketdi.

Sakkiz yoshli bolajonning armoni, umidi – dadasini topish va u bilan birgalikda xizmat qilish. Buni idrok etganim sari urush olovini yoqayotgan, tinchlikning qadriga yetmayotgan osiy bandalarga nisbatan nafratim oshdi, ko'zlarimdan o'kinch yoshlari dumaladi. Qulog'im ostida esa Vohidjonning "Dadam haqida yozing", degan so'zlarini jaranglardi.

**O'ktamxon AKBAROVA,  
jurnalist**

## Iftixor



Mustaqillik, istiqlol, hurlik tushunchalari barcha xalqlar uchun bebaho ne'matdir. Ana shu ulug' ne'mat tufayli har bir xalq o'z rivojlanish yo'lini tanlaydi, taqdirini belgilaydi, ulkan va yuksak marralarga intiladi. Shu bois butun xalqimiz O'zbekistonimiz mustaqillikka erishgan kunni katta shodiyona, tantana bilan nishonlaydi.

O'tgan tarixan qisqa vaqt davomida elimizning fidokorona mehnati va qat'iyati bilan milliy o'zligimiz, qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, ezgu qadriyati va an'analarimiz qayta tiklandi. Jamiyatimizda bo'layotgan ezgu ishlar, avvalo inson qadri uchun degan tamoyil asosida amalga oshirilmoqda. "Xalq davlatga emas, davlat xalqqa xizmat qilishi kerak" degan ezgu g'oya davlat va jamiyat hayotiga chuqur singib, oltin qoidaga aylandi.

Davlatimiz rahbarining, avvalo inson va xalq manfaatlarini o'ylab yuritayotganadolatlari, xalqchil siyosati, yurtoshlarimizning birgalikdagi sharafli mehnati orqali ulkan yutuqlarga erishmoqdamiz. Xalqimizning ulkan jasorati va matonati bilan qo'lg'a kiritilgan mustaqillik tarix zarvaraqlarida hech qachon unutilmaydigan, qadr-qimmati va ahamiyati yillar, asrlar o'tgani sayin tobora ortib boradigan buyuk tarixiy voqeadir.

Mustaqillikning mohiyati va ahamiyatini "Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!" degan bosh g'oya asosida barcha hududlarda tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlarda ham yana bir karra ko'rib turibmiz. Mamlakatimizda jamiyat va davlat hayotining barcha jabhasini erkinlashtirish va isloq qilish jarayonlari jadal davom etib,

yurtimiz dunyo hamjamiatida o'zining munosib o'rniga ega bo'ldi.

So'nggi yillarda barcha soha va tarmoqlar yanada ravnaq topdi, taraqqiyotimiz yangi bosqichga chiqdi. Bugungi kunda yurtimizda har bir fuqaro erkin va farovon yashaydigan, inson qadri ustuvor bo'lgan Yangi O'zbekiston barpo etilmoqda. Konstitutsiyamizning yangi tahrirda qabul qilinishining o'zi ham el-yurtimiz Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelayotganini yaqqol tasdiqladi.

Bir so'z bilan aytganda, iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochish, yangi ish o'rinnari yaratish, kambag'allikni qisqartirish, aholining turmush farovonligini oshirish, tibbiy xizmatlar va ta'lim sifatini jahon standartlariga moslashtirish, shaharlar va qishloqlarimizni obod qilish, yurtimizning xalqaro miqyosdag'i obro'e-tiborini yuksaltirish yo'lida erishayotgan natijalarimizni har bir yurtdoshimiz o'z hayotida his etmoqda.

**Umid MIRZAYEV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Bosh prokururaturasi  
boshqarma boshlig'i  
o'rindbosari**

**Mudofaa vazirligi kubogi**

# ARMIYAMIZNING eng sara polvonlari bellashdi

Urganch shahridagi "Yoshlik" sport majmuasida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlari harbiy xizmatchilari o'rtasida sportning milliy kurash turi bo'yicha championat bo'lib o'tdi.

Shamsuddin Somiyning "Qomusul-a'lom", kabi Lutf Alibek Ozarning "Otashkada" asarlarida, shuningdek "Manoqiba"da yozilishicha Pahlavon Mahmud olim, shoir, kuragi yerga tegmagan pahlavon, shu bilan birga po'stindo'z va telpakdo'z usta bo'lgan. Mazmunan boy va teran, shaklan pishiq va go'zal falsafiy ruboilylari tufayli "Xorazm Xayyomi" nomi bilan shuhrat qozongan Pahlavon Mahmud dovruq taratgan hassos shoir, yengilmash pahlavon va mashhur avliyodir. Eron, Hind kabi ko'plab Sharq mamlakatlardagi kurash musobaqalarida qatnashib, hamisha zafar quchgan, bir umr kuragi yerga tegmay, mamlakatning birinchi polvon, pahlavonlar peshvosi bo'lgan.

Shu bois Pahlavon Mahmud yurti bo'lmish Xorazm viloyatida milliy kurash bo'yicha katta va kichik musobaqalar, xalqaro va respublika miqyosidagi turnirlar o'tkazilib, mamlakatimizda yashab o'tgan mashhur va yengilmash pahlavonlarga hurmat va e'tibor namunasi ko'rsatilmoqda.

Mudofaa vaziri kubogi uchun kechgan bahslarda vazirlig qo'shinlarining harbiy okruglari, birlashma, oliy harbiy ta'lim muassasalari hamda markazga bo'ysunuvchi harbiy qismlardan iborat

qo'shinlari qo'mondonligi, Mudofaa vazirligi ofitserlari, Xorazm viloyati hokimligi rahbariyati, Respublika kurash federatsiyasi vakillari, taniqli sportchilar, yoshlar hamda harbiy xizmatchilar ishtirot etdi.

Tantanali marosimda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov so'zga chiqib, butun jahon nigofiga tushib, dovrug va shuhrat qozonayotgan, millionlarni o'ziga mahliyo etayotgan milliy kurash jahoning yuksak ma'naviy qadriyatlaridan biri sifatida o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega ekanini ta'kidlab o'tdi.

Murosasiz bahsrlarga boy o'tgan championat ham katta sportga kirib kelayotgan

etishda o'tkazib kelinayotgan mana shu kabi ko'plab musobaqalarning o'rni beqiyos bo'lmoqda. Bugun deyarli barcha sport turlari bo'yicha Mudofaa vazirligi o'z championlari, Vatanimiz sha'nini jahon arenalarida ham munosib himoya qilib kelayotgan harbiy xizmatchilari bilan faxrlanishi mumkin.

Bellashuvning yakuniy natijalariga ko'ra, umumjamoa hisobida championatning mutlaq g'olibligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi jamoasiga



13 ta jamoaning 100 nafarga yaqin a'zosi 7 vazn toifasida, ya'ni 60, 66, 73, 81, 90, 100 kg.gacha va 100 kg.dan yuqori vazn toifalarida g'oliblik uchun bahslashdi.

Shuningdek, "2024-yil - Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" munosabati bilan Mudofaa vazirligi tashabbusi bilan 60 nafardan ziyod xorazmlik yosh o'rtasida 46, 50, 55, 60, 66, 77 kg.gacha va 77 kg.dan yuqori vazn toifasida sport bellashuvi tashkil etildi.

Musobaqaning tantanali ochilish marosimida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug

yosh va umidli sportchilar, ham ilgari yuksak natijalarga erishib kelayotgan pahlavonlarga o'zaro tajriba almashish, o'z kuchi va imkoniyatlarini yana bir bor sinovdan o'tkazish hamda ko'nikmalarini mustahkamlashga imkon yaratdi.

Ta'kidlash joizki, armiyada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sportning yakkakurash turlarini ommalashtirish, harbiy xizmatchilar hamda respublika yoshlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib



nasib etdi. Shohsupanining ikkinchi pog'onasidan Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug sportchilari o'rinn oldi. To'plagan umumiy ballari hisobi bo'yicha tenglashgan Shimoli-g'arbiy harbiy okrug va Janubiy operativ qo'mondonlik vakillari musobaqa jadvalining uchinchi pog'onasidan joy oldi.

Championatda g'olib bo'lgan jamoa O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining kubogi, faxli o'rirlarni egallagan qolgan jamoalar tegishli darajadagi diplom, medal hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shuningdek, musobaqani tashkil etish va o'tkazishda Mudofaa vazirligiga yaqindan ko'mak bergen bir qator tashkilot vakillariga vazirlik nomidan tashakkurnomalar berildi.

Tadbir davomida Xorazm viloyatining umidli san'atkorlari tomonidan ijro etilgan kuy va qo'shiqlar barchaga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

**Kapitan Sohibjon OLIMOV,  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
sport vvvodi boshlig'i**



Salomatlik

# MAYMUN CHECHAGI

## QANDAY KASALLIK?

Dunyoda yangi pandemiya paydo bo'lish xavfi bormi?

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy

tarmoqlarda "Maymun chechagi" deb atalayotgan kasallik haqida turli xil xabarlar ko'payla boshladi. Shu sababli siz, aziz obunachilarmizga ushbu kasallik haqida to'liqroq ma'lumot taqdim etishni joiz deb bildik.

Maymun chechagi (Monkeypox) – bu poksviruslars oilasiga mansub maymun chechagini chaqiruvchisi bo'lgan MPXV virusi keltirib chiqaradigan yuqumli kasallik hisoblanadi.

### U qanday paydo bo'lgan, kasallanish holatlari ro'yxtarga olinib turadimi?

Virus birinchi marta 1958-yilda, tadqiqot uchun saqlanadigan laboratoriya maymumlari orasida bir nechta epidemiyalar sodir bo'lganida aniqlangan. Kasallik maymun chechagi deb atalsada, uning tabiiy rezervuari nafaqat maymumlar, balki olmaxon, kalamush va sichqon kabi kichik sut emizuvchilar hisoblanadi.

Odamda bu kasallik ilk marta 1970-yilda Kongo Demokratik Respublikasida qayd etilgan. O'shandan beri kasallik asosan Markaziy va G'arbiy Afrikada aniqlangan. Bu yerda virusning hayvonlardan odamlarga, shuningdek odamdan odamga yuqishi tasdiqlangan. 2003-yilgacha epidemiyalar faqat



Afrikada, keyin esa boshqa qit'alarda qayd etilgan, ammo aksariyat holatlarda virus boshqa mintaqalarga tashib borilgan.

2022-yilda Afrikadan tashqariga chiqib, barcha qit'alardagi ko'plab davlatlarda qayd etila boshladi. Shu sababli 2022-yil 23-iyulda Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti maymun chechagi bo'yicha favqulodda holat e'lon qildi. Faol nazorat choralar tufayli uning qamrovi cheklandi va keyinchalik favqulodda holat bekor qilindi.

2024-yilga kelib, Afrikada kasallanish holati yanada ko'payib bormoqda. Yil boshidan qayd etilgan bemorlar soni 17 000 nafardan ortdi va 500 dan ortiq o'lim holati qayd etildi. Shuningdek, Afrika qit'asidan tashqari boshqa davlatlarda ham kasallanish holatlari

yuzaga kela boshladi. Shu sababli 2024-yil 14-avgustda Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti maymun chechagi bo'yicha yana favqulodda holat e'lon qildi.

### Qanday yuqadi?

Kasal hayvondan odamga, hayvon bilan muloqot (hayvon tishlashi yoki jarohatlashi, kasal hayvonni davolash, so'yish, terisini shilish) va kasal hayvondan tayyorlangan taomni iste'mol qilish;

bemor odamdan sog'lom odamga muloqot (ko'rishish, o'pishish, zararlashish, kiyim-kechak, sochiq, choyshab va ignalar), havo-tomchi orqali yaqin masofada uzoq muddat suhabatlashish (yo'tal, aksirish va nafas olish) hamda jinsiy aloqa yo'llari bilan; onadan bolaga homiladorlik va tug'ish vaqtida yuqishi mumkin.

### Qanday belgilari mavjud?

Kasallik isitma, bosh og'rig'i, mialgiya (mushak og'rig'i) va kuchli charchoq bilan boshlanadi. Birinchi alomatlar paydo bo'lganidan bir necha kun o'tgach, bemorning avval yuzida keyin butun tanasida toshma paydo bo'ladi. Toshma bir necha bosqichdan (dog'lar, papulalar, pufakchalar va pustulalar) o'tadi, keyinchalik ular po'st boylaydi.

Limfa tugunlarining kattalashushi (limfadenopatiya) maymun chechagini suvchechak yoki chechak kabi boshqa kasalliklardan ajratib turadigan o'ziga xos belgidir. Kasallik bilan og'rish odatda ikki haftadan to'rt haftagacha davom etadi.

### Qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Maymun chechagini aksariyat holatlari yengil o'tadi. Lekin ba'zi bemorlarda ikkilamchi bakterial infeksiyalar qo'shilishi natijasida zotiljam, sepsis, ensefalit, meningoensefalit va ko'rish qobiliyatining yo'qolishiga olib keladigan ko'z shox pardasining yallig'lanishi kabi jiddiy asoratlar rivojlanishi mumkin. Yosh bolar, homilador ayollar va immun tizimi kuchsiz bo'lgan odamlarda kasallanish, shu bilan birga asoratlanish xavfi yuqori.

Kasallanib o'tganlarda kosmetik nuqsonlar (chandiqlar (cho'tir) va dog'lar) qolib ketishi holatlari ko'p uchraydi.

### Davolash mumkinmi?

Virusga ta'sir eta oladigan preparat mavjud va Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ushbu preparatni qo'llash uchun ruxsat etilgan. Bundan

tashqari, maxsus immunoglobulinlar va kasallikning belgilariga ko'ra davolash vositalari mavjud.

### Kasallikdan saqlanish mumkinmi?

Imkonli boricha kasallik tarqalgan yoki kasallik uchun epidemik hudud davlatlariga borishdan tiyilib turish;

endemik hududlarga borilgan taqdirda yovvoyi hayvonlar, ayniqsa kemiruvchilar bilan muloqot qilmaslik, muloqot zarurati tug'ilganda, albatta himoya kiyimi va qo'lqoplardan foydalanish;

jamoat joylariga chiqqan vaqtida shaxsiga gigiena qoidalariga qat'iy rioya qilish;

tana harorati ko'tarilgan yoki tanasida toshmalar toshgan yo'lovchilar bilan birgalikda harakatlanish to'g'ri kelganda, niqob taqish, ijtimoiy masofani saqlash, qo'llarga zararsizlantiruvchi vositalar bilan ishlov berish.

### Unga qarshi vaksina ishlab chiqilganmi?

Maymun chechagiga qarshi vaksina sifatida chin chechakka qarshi vaksinadan foydalanish mumkin va bu kasallanish xavfini 90 foizga kamaytiradi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, hozirgi kasallanish holatlari bu kasallikka qarshi ommaviy emlash uchun ko'rsatma hisoblanmaydi. Kasallik o'chog'ida bo'lganlar va o'choqda ishlaydiganlar emlanadi.

### Qay darajada xavfli?

Virusning ikkita asosiy G'arbiy Afrika va Markaziy Afrika (Kongo) genetik sinflari mavjud. G'arbiy Afrika turi II sinfga kiritilib, kamroq virulent va taxminan 1 foizga yaqin holatda kasallik o'lim bilan tugaydi. Markaziy Afrika turi I sinfga kiritilib nisbatan og'irroq kechishi va 10 foizga qadar o'lim holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Shu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, 2022-yilda dunyoda tarqalgan virus IIb shtammi bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, asosan, Ib shtammi tarqalishi kuzatilmoqda.

Maymun chechagi global miyqosida COVID-19 kabi xavf tug'dirmaydi. Ammo uning tarqalishi kuchaytirilgan profilaktika va nazorat choralarini talab qiladi. Lekin global mashhuv va xalqaro sayohatlarning kuchayishi sharoitida virusni boshqa mamlakatlarga olib kirish va tarqalish xavfi dolzarbligicha qolmoqda.

### Respublikamizda maymun chechagi qayd etildimi? Tibbiyotimiz ushbu kasallik tarqalishiga tayormi?

2022-yilda dunyo mamlakatlariga tarqalgan vaqtida ham, bugungi kunda ham ushbu kasallik respublikamiz aholisi orasida qayd etilmadi.

O'zbekistonda kasallikka chalinganlikda guman qilinadigan holatlarda laboratoriya tashxislarini o'tkazish uchun bojxonalaridagi va virusologiya ilmiy tekshirish institutidagi virusologiya mutaxassislar qayta tayyorgarlikdan o'tkazilgan. Shuningdek, maymun chechagi kasalligini aniqlash uchun zarur bo'ladigan diagnostika va test sistemalarini olib kelish yuzasidan ishlar yo'lg'a qo'yilgan.

Dunyo amaliyotida kasallikni faol aniqlash, emlash va infeksiyalangan shaxslarni izolyatsiya qilish kabi choralar bu kasallikka qarshi kurashda o'z samarasini bermoqda. Respublikamizga kasallik kirib kelgan holda ham, COVID-19 pandemiyasi paytida kiritilgani kabi keng ko'lamlili karantinlarga hojat bo'lmaydi.

Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi ham har qanday yangi tahdidlarga tezkor javob berish maqsadida vaziyatni diqqat bilan kuzatishda davom etmoqda.

**Tibbiy xizmat podpolkovnigi  
T. ESHQOBILOV,  
tibbiy xizmat podpolkovnigi  
T. TOSHPO'LATOV,  
Mudofaa vazirligi  
Sanitariya-epidemiologiya  
nazorati markazi mutaxassislar**



Unda 100 nafardan ortiq harbiy xizmatchi va ularning oila a'zolari ishtiroy etishdi hamda mutaxassislar tomonidan huquqiy maslahat va tavsiyalar berildi.

Qabul davomida 15 ta murojaat qabul qilinib, yechimini hal etish borasida tegishli tashkilotlarga yo'naltirildi. Ular ichida imtiyoziylipoteka kreditlari asosida uy-joy olish, kommunal xizmatlar ko'rsatish hamda boshqa masalalar bo'yicha murojaatlardan tinglandi.

Tadbir doirasida kitob yarmarkasi o'tkazilib, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun o'zbek va jahon adabiyoti klassikasi, motivatsiya beruvchi nashrlar taqdim etildi.

Shuningdek, Nukus harbiy gospitali hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi mutaxassislar ishtiroyida harbiy shaharchada istiqomat qilib kelayotgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari tegishli tibbiy tavsiya va yo'llanmalar berildi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**



# Germaniyaga texnik mutaxassislar yetkazib beriladi

O'zbekiston Respublikasi mudofaafiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va Germaniya Federativ Respublikasi vakillari ishtirokida uchrashuv o'tkazildi.

"Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov, Germaniya vakili Nils Gerdemann va Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining boshlig'i o'rinosi Ulug'bek Turabov ishtirokida o'tgan yig'ilishda xorijda vaqtincha ishlash istagida bo'lgan mamlakatimiz fuqarolarini "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida haydovchilik va turli texnik xizmat ko'satish mutaxassisliklariga tayyorlab,



Germaniyaga yuborish masalalari muhokama qilindi.

Tadbirda Germaniyada ayni paytda "CE" toifali yuk avtotransporti haydovchilar hamda turli texnik kasb mutaxassislariga katta ehtiyoj sezilayotganligi, shu bois "Vatanparvar" tashkilotining respublikadagi shahar va tumanlarida faoliyat yuritayotgan o'quv muassasalarida ushbu kasblarga fuqarolarning o'qitilib, nemis diyoriga yuborilishi eng maqbul



yo'l ekani e'tirof etildi. Ushbu sa'y-harakatlar, o'z navbatida, respublikamiz bo'ylab yuzlab fuqarolarning bandligi ta'minlanishiga hissa qo'shishi ta'kidlandi.

Uchrashuv davomida xorijlik vakillarga tashkilotda avtomototransport haydovchilar hamda texnik xizmat ko'satish mutaxassislarini tayyorlash kurslari faoliyati, tashkilotning o'quv-metodik va moddiy-texnik negizi to'g'risida batafsil ma'lumot berildi.

Ayniqsa, tadbir doirasida Germaniya tomonidan "Vatanparvar" tashkilotiga ikki dona "Yevro-6" standartidagi zamonaviy "Mercedes-Benz" rusumli yuk avtomobillarining sovg'a qilinishi hamkorlikdagi ishlarning to'laqonli olib borilishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

**O'zbekiston Respublikasi mudofaafiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati**



## Kitobxonlik



Yer yuzidagi birinchi kutubxonalar 2 ming yillik qadimgi Sharqda – Vavilonning Nippur shahrida paydo bo'lib, bu yerda birinchi yozuvlar loyli taxtachalarda, so'ngra papiruslarda tayyorlangan va ular kitoblar vazifasini bajargan. Bizlarga yetib kelgan tarixiy manbalardan ma'lumki, birinchi kutubxonalarini "hayot uylari" deb atashgan.



## Kutubxona – hayot uyi

Kitoblar ko'payishi natijasida katta kutubxonalar paydo bo'ldi, jumladan mashhur Misrdagi Iskandariya kutubxonasi yaratildi. Keyinchalik 1725-yilda Sankt-Peterburgda Imperator kutubxonasi ochilib, bu yerga barcha kitobxonlarga adabiyotlardan foydalanish uchun yo'l ochilgan. Bugungi kunda Yer yuzidagi eng mashhur kutubxonalar haqida gapiradigan bo'lsak, Amerikaning Washington Kongress kutubxonasining

kitob jamg'armasi 138 million adabiyotdan iborat bo'lib, shundan 30 millioni kitob, qolgani qulyozmadir. Garvard universitetining kutubxonasi, Vatikan kutubxonasi, Fransiya milliy kutubxonasi 12 mln, Avstriya milliy kutubxonasi 7,5 mln, Chexiya milliy kutubxonasi 7 mln, Dublin universiteti 1 mln, Praga milliy kutubxonasi 100 ming, Benedikt kutubxonasi 100 ming, Ispaniyadagi San-Lorenzo 40 ming, Shveysariyadagi

Avliyo Gal ibodatxonasi qoshidagi kutubxona 200 ming adabiyoti borligi bilan mashhur bo'lib, shu qatorda o'zining muhtashamligi, qurilish va me'morchilik san'atidagi betakrorligi bilan ajralib turadi. Mudofaa vazirligi qo'shinlari qo'mondonliklari tomonidan bugungi kunda harbiy xizmatchilar o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, bilim saviyasini yangi pog'onaga ko'tarish, harbiy qism va

muassasalarda kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish, ularning jamg'armalarini boyitish, moddiy-texnik bazasini tubdan yaxshilash borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug kutubxonalari ham zamonaviy talablarga javob beradi. Kitob javonlari, kutubxona jihozlari, jahon va o'zbek mashhur mumtoz adabiyotlari, zamonaviy asarlar, qiziqarli ensiklopediyalar, sohaga oid kitoblar kitobxonlarning mutolaa madaniyatini yuksaltirishda o'z xizmatini ko'rsatmoqda.

Okrug boshqaruvi apparati qoshidagi kutubxonada kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilar bilan bir qatorda muddatli harbiy xizmatchilar ham faol kitobxonlarga aylanmoqda. Kutubxona qoshida askarlar uchun rus va ingлиз tillarini o'rganish to'garaklari, "She'riyat muxlisilari" to'garagi tashkil etilgan. Okrug harbiy psixolog, Qarshi davlat universiteti psixologiya kafedrasi o'qituvchilar ishtirokida "Psixolog maktabi" hamda "Ombudsman maktabi", "Salomatlik maktabi" tashkil etilgan va mashg'ulotlar mutaxassislar yordamida o'tkazib kelinmoqda.

**Tamara MAMANOVA,  
ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha  
mutaxassis**

Musobaqa

# FAXRIYLAR FUTBOL DA BELLASHDI

Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi stadionida kuch tuzilmalari faxriylari o'rtasida "Mudofaa vazirligi kubogi" uchun mini-futbol musobaqasi o'tkazildi.

Unda Ichki ishlar vazirligining "Posbon-Dinamo", DXX Chegara qo'shinlarining "Chegarachi", Prezident davlat xavfsizlik xizmati va Davlat xavfsizlik xizmati faxriylaridan iborat "Jasorat", Mudofaa vazirligining "Mudofaa", Davlat bojxona qo'mitasining "Merkuriy", Milliy gvardiyaning "Gvardiyachi" hamda "Veteran" jangchi-faxriy va nogironlar birlashmasining "Sardor" jamoalari o'zaro kuch sinashdi.

Vatanimiz mustaqilligining 33 yilligiga bag'ishlab tashkil etilgan mazkur bellashuv qizg'in va murosasiz bahslarga boy tarzda o'tdi. Musobaqaning 3-o'rni uchun kechgan uchrashuvlar "Jasorat" va "Gvardiyachi" jamoalari o'rtasida o'tkazildi. Natijada



"Jasorat" jamoasi raqiblariga hech qanday imkon qoldirmay, shohsupaning 3-o'rnni band etdi. Mudofaa vazirligining "Mudofaa" va Ichki ishlar vazirligining "Posbon-Dinamo" jamoalar o'rtasidagi final bahslarida esa mezbon jamaa 1:0 hisobida g'alaba qozonib, "Mudofaa vazirligi kubogi" sohibiga aylandi. Shuningdek, "Eng yaxshi darvozabon", "Eng yaxshi hujumchi", "Eng yaxshi himoyachi" nominatsiyalari bo'yicha eng mahoratlari futbol o'inchilari aniqlandi.

Musobaqaning tantanali taqdirlash masosimida mudofaa vazirining maslahatchisi - Faxriylar markaziy kengashi raisi iste'fodagi polkovnik

Abubakir Navro'zov, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi bиринчи vitse-prezidenti yordamchisi Rahmaddin Zikriyayev hamda mazkur assotsiatsiyaning faxriylar kengashi raisi To'lagan Isoqov nafaqa davrida sog'lom turmush tarziga rioya qilib, sport bilan muntazam shug'ullanayotgan faxriylar yosh avlod uchun har tomonlama namuna ekanini ta'kidladi.

So'ng g'olib va sovrindorlar harbiy orkestr sadolari ostida diplom va medallar bilan taqdirlandi.

**Katta leytenant Dilshod RO'ZIQULOV,  
"Vatanparvar"**

Yong'in xavfsizligi

## Profilaktik tadbir o'tkazildi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumanida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismda favqulodda vaziyatlar va yong'inlar

profilaktikasi kuni doirasida joriy yilning kuz-qish davrida "Yong'in xavfsizligini ta'minlashda huqua va majburiyat" shiori ostida o'ziga ishonib topshirilgan harbiy obyekt, quroslasla, texnika va mol-mulkni yong'indan asrab-avaylash bo'yicha harbiy xizmatchining majburiyatlar mavzusida profilaktik davra suhbati bo'lib o'tdi.

Tadbirda Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi Qo'ng'irot tumanı yuridik xizmat ko'sratish markazi bosh yurist-konsulti O. Matyakupov, tuman IIB JHX huquqbazarliklar profilaktikasi bo'limi boshlig'i podpolkovnik O'. Muxanov, katta inspektori kapitan Y. Aymuratov, IIB hududiy profilaktika inspektori mayor M. Mambetkarimov ishtirot etdi.



asrab-avaylash kerakligi, harbiy xizmatchilar o'rtasida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish to'g'risida ma'lumotlar yetkazib, kelgusidagi hamkorlik masalalari belgilab olindi.

Davra suhbati davomida harbiy xizmatchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislar tomonidan javob oldi.

**Podpolkovnik O'. XAITOV**



## Korrupsiyaga qarshimiz



Urganch harbiy prokuraturasi tomonidan harbiy qism va muassasalarda amaliy tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlarning birida "Korrupsiya - taraqqiyot kushandas" mavzusida huquqiy targ'ibot profilaktika tadbiri o'tkazildi.

Muloqotda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun mohiyati, korrupsiyaviy jinoyatlar va ular uchun belgilangan javobgarlik masalalari haqida so'z yuritildi.

Ta'kidlanganidek, korrupsiya - shaxsnинг o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslearning manfaatlarini ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, suiddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdirm etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga oid huquqbazarlik korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazardautilgan qilmishdir. Jarayonda ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroficha javob oldi.

Bundan tashqari, Xorazm viloyati qo'riqlash boshqarmasida "Bir bo'lsak - yagona xalqmiz, birlashsak - Vatanmiz!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Unda yurtimizda, shu jumladan Qurolli Kuchlarda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, ularning mohiyati haqida hayotiy misollar bilan batafsil ma'lumot berildi.

**Adliya podpolkovnigi Umid NIZAMOV,  
Urganch harbiy prokurori**

Muloqot

## Ochiq eshiklar kuni

"Bir bo'lsak - yagona xalqmiz, birlashsak - Vatanmiz!" shiori ostida Milliy gvardiya Surxondaryo viloyati bo'yicha boshqarmasida ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.

Unda Termiz harbiy prokuraturasi, Yoshlar ittifoqi, Yoshlar ishlari agentligi va qator mutasaddi tashkilotlar mas'ullari ishtirot etdi.

Birkirtirilgan mahallalar yoshlari o'rtasida turli sport bellashuvlari tashkil etilib, g'oliblarga sovg'alar ulashildi. Harbiylarning ko'rgazmali chiqishlari, harbiy va maxsus aslahalar namoyishi barchada katta qiziqish uyg'otdi.

Shuningdek, yoshlar bilan muloqotlar tashkil etilib, vatanparvarlik, burchga sadoqat, harbiy xizmat nufuzi, tinchlik qadri tushunchalari yuzasidan ularning fikrlari tinglandi.

Jarayonda mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilgan keng imkoniyatlar haqida atroficha tushuntirishlar berildi.

**Adliya leytenant  
Sardor HABIBULLAYEV,  
Termiz harbiy prokuraturasi  
tergovchisi**

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAASIGA KO'MAKLASHUVCHI "VATANPARVAR" TASHKILOTI XORAZM VILOYATI KENGASHI JAMOASI

*davlatimiz  
mustaqilligining  
33 yilligi munosabati  
bilan butun xalqimizni,  
harbiy xizmatchilar va  
ularning oila a'zolari  
hamda "Vatanparvar"  
tashkiloti tizimida  
mehnat qilayotgan fidoyi  
hamkasblarini samimiy  
tabriklaydi.*

*Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin  
aziz yurtdoshlar!*



# “SIRDARYO AVTOBUS SAROYI” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

*xalqimizni, mamlakatimiz Qurolli Kuchlari saflarida xizmat qilayotgan barcha harbiylar hamda avtotransport sohasida mehnat qilayotgan hamkasblarini va ularning oila a'zolarini mamlakatimiz mustaqilligining 33 yillik ayyomi bilan tabriklaydi.*

*Eng ulug‘, eng aziz bayramimiz  
muhorak bo‘lsin!*

# “XONQA NAMUNA AVTO USTOZ”

# MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

*siz, aziz yurtdoshlarimizni  
mamlakatimiz mustaqilligining  
33 yillik bayrami bilan samimiy  
qutlab, Vatan ravnaqi, xalqimiz  
farovonligi yo'lidagi samarali  
ishlaringizda ulkan zafarlar yor  
bo'lishini tilab qoladi.*

*Barchangizga tinchlik-  
omonlik, baxt-u saodat,  
xonadoningizga fayz-u  
baraka tilaymiz.*

*Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo,  
aziz xalqimiz omon bo'lsin!*



# AVTOMOTOHAVASKORLAR KO'NGILLI JAMIYATI

**SAMARQAND VILOYATI KENGASHI JAMOASI  
HAMDA TASHKILOTNING TUMANLARDA FAOLIYAT  
KO'RSATAYOTGAN JAMIYATI A'ZOLARI**

*barcha yurtdoshlarimizni mamlakatimiz mustaqilligining 33 yillik ayyomi bilan chin dildan muborakbod etadi.*

*Hamisha yurtimiz tinch, mamlakatimiz  
osmoni musaffo bo'lib,  
Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!*

Men g'olib!

Qirg'iziston Respublikasining Cho'pon ota shahrida harbiy xizmatchilar o'rtaida tosh ko'tarish sport turi bo'yicha jahon championati bo'lib o'tdi. Unda 20 dan ortiq davlatning 700 nafar sportchisi "Dast ko'tarish", "Siltab ko'tarish", "Ikkikurash", "Uzun sikl ko'tarish" va "Estafeta ko'tarish" yo'nalishlari bo'yicha bahs olib bordi.

# Harbiy SPORTCHILAR TAQDIRLANDI



polkovnik Qodir Tursunov ishtirot etdi.

Taqdirlash marosimida so'zga chiqqanlar bugungi milliy armiyamizni dunyoga tanitishda jismoniy kuch va chidamlilikka ega harbiy sportchilarimizning alohida hissasi borligi ta'kidlandi. Marosimda yuqori natijalarni qayd etgan jamoa a'zolariga qimmatbaho sovg'alar tantanali ravishda topshirildi.

- Musobaqa qizg'in bahslarga, tajribalarga boy bo'ldi, - deydi guruh yetakchisi katta leytenant Umidjon Sobirov.

- Ta'kidlab o'tmoqchimanki, mazkur musobaqaqacha bo'lgan davr mobaynida jamoamiz kuchli tayyorgarlik jarayonlarini o'tkazdi. Buning uchun esa bizga yetaricha shart-sharoitlar yaratib berildi.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,  
"Vatanparvar"**



Harbiy ta'lim

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchilarni "Taktik boshqaruvi bo'g'inidagi ofitserlarni tayyorlash oliy kursi"da o'qitish yo'lga qo'yilganligi milliy armiyamizga kadrlar yetkazib berish bosqichining bir bo'lagi hisoblanadi.

# Xizmat PILLAPOYASI



Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida har yili tashkil etiladigan 3 oylik o'quv kursida tinglovchilar professor-o'qituvchilar va ustozlardan taktika, qo'shinlarni boshqarish, texnik va front orti ta'minoti, radiatsion biologik-kimyoiy muhofaza, notiqlik san'ati kabi o'ndan ortiq yo'nalish bo'yicha saboq oladi.

2023/2024-o'quv yilining so'nggi guruhida ta'lim olgan bir guruh ofitserlarga sertifikat hamda ko'krak nishonlari topshirildi. Tadbirda ishtirot etgan Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti boshlig'ining o'quv va ilmiy ishlari bo'yicha o'rinnbosari

polkovnik Sobirjon Abduraimov bitiruvchilarning qo'shinlardagi keyingi faoliyatiga omad tilagan holda, egallangan bilim va ko'nikmalari shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarligini yanada oshirishga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Eslatib o'tamiz, oliy kursda o'qish ofitserlar uchun kelgusida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasining davlat mudofaasi va harbiy xavfsizlik fakultetida ikki va bir yillik tahsil olish uchun rezervga kiritiladi. Qisqa qilib aytganda, uch

oy davomida olingan bilim va ko'nikmalar harbiy xizmatchilar uchun yuqori komandirlilik lavozimlarini egallashlarida pillapoya vazifasini o'tab beradi.

**A. RO'ZIBOYEV**

Toshkent harbiy okrugiga qarashli aloqachilar harbiy qismi madaniyat markazida Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy qism va muassasalar harbiy xizmatchilari o'rtasida "Eng yaxshi vatanparvarlik ruhidagi qo'shiq" tanloving Mudofaa vazirligi bosqichi o'tkazildi.

# Sara qo'shiqlar tanlovi



Mualif surʼata oʻgan

Unda yangi Oʻzbekiston oʼgʼlonlari, muqaddas Vatan himoyasi, yurt tinchligiga bagʼishlangan xilma-xil xonishlar tarannum etildi. Vatanimiz mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan Respublika maʼnaviyat va maʼrifat markazi, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar hamda Madaniyat vazirliklari, Oʻzbekiston kompozitorlari

va bastakorlari uyushmasining qoʼshma qaroriga muvofiq oʼtkazilgan tanlovida ishtirokchilarni shaffof va odilona baholash maqsadida malakali mutaxassislar jalb etildi. Mudofaa vazirligi Maʼnaviyat va madaniyat departamenti qoshidagi "Turon" davlat harbiy teatri aktyorlari, yozuvchilar, maʼnaviyat targʼibotchilari, xonanda va bastakorlardan iborat hakamlar hayʼati ishtirokchilarning har bir chiqishini sinchkovlik bilan kuzatib, xolisona baholadi.

Yakuniy natijalarga koʼra, Mudofaa vazirligi Maxsus avariya-tiklash boshqarmasining "Impuls" jamoasidan kichik serjant Mirvohid Mirtursunov "Askar" taronasi bilan 3-oʼrinni qoʼlga kiritdi. 2-oʼrin Qurolli Kuchlar Markazi ashula va raqs ansambl vokal guruhi ijrosidagi "Matonat manbai" qoʼshigʼiga berildi. Ushbu ansamblning bir guruh xonandalari – serjant Sherzod Imonberdiyev, kichik serjant Akbar Fayziyev, Qurolli Kuchlar xizmatchilari Umid Haydaraliyev va Avaz

Usmonov "Yangi Oʻzbekiston" qoʼshigʼi bilan mutlaq gʼolib boʼlib, tanloving respublika bosqichida ishtirok etish yoʼllanmasini qoʼlga kiritdi.

Gʼolib va sovrindorlarga Mudofaa vazirligi Maʼnaviyat va madaniyat departamenti tomonidan diplom va qimmatbaho sovgʼalar topshirildi.

**Katta leytenant Dilshod ROʻZIQULOV,  
"Vatanparvar"**



@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririysi bilan bogʼlanish uchun telegram bot



**SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI**



MUASSIS

O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI  
[www.mudofaa.uz](http://www.mudofaa.uz)

**Tahririyat kengashi:**  
general-major Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otobek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qoʼlyozmalar taqziq qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.  
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

**Bosh muharrir:**  
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

**Telefonlar:**  
kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik boʼlim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

**Navbatchi:** podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova  
**Sahifalovchi:** Dilnoza Meliqo'ziyeva  
**Musahih:** Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-5809  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 902 nusxa  
Bosishga topshirish vaqt: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiha "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyundan chiqa boshlagan.

Nashr koʼrsatkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy koʼchasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:  
100164, Toshkent, Universitet koʼchasi, 1-uy.



[t.me/mv\\_vatanparvar\\_uz](https://t.me/mv_vatanparvar_uz)  
[t.me/mudofaavazirligi](https://t.me/mudofaavazirligi)



[www.mv-vatanparvar.uz](http://www.mv-vatanparvar.uz)  
[www.mudofaa.uz](http://www.mudofaa.uz)



[mudofaavazirligi](#)



[mudofaavazirligi](#)



[www.youtube.com/c/UzArmiya](https://www.youtube.com/c/UzArmiya)